


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**IJTIMOIIY GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI**



**“Inson huquqlari”, "Ayollar huquqlari", "Bola  
huquqlari”**

**MAXSUS KURSDAN**

**O‘QUV-USLUBIIY MAJMUA**

*(kunduzgi ta’lim shakli 1- kurs talabalari uchun)*

Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar soha  
Ta’lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar  
Bakalavr yo’nalishlari: barcha yo’nalishlarga

**Termiz – 2023**

Mazkur o'quv uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-uil 7-fevraldagi P-46-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasfurini amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasining 2.3-bandida 2022-2023 o'quv yilidan boshlab shakllantirilgan ro'yxatdagi davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlarida "Inson huquqlari", "Ayollar huquqlari", "Bola huquqlari; O'quv va maxsus kurslarini joriy etish choralarini ko'rish vazifasi ijrosini ta'minlash maqsadida Oliy ta'lim va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 19-iyundagi 2/18-15/06-01-sonli xati ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:** Xudayberdiyev X. X. -“ Ijtimoiy gumanitar fanlar”  
kafedrasi o'qituvchisi

**Taqrizchi:** t.f.n, dots. Bo'riyev S. D.

*O'quv-uslubiy majmua Termiz muhandislik – texnologiya instituti O'quv-uslubiy kengashining 2023 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_- sonli qarori bilan tavsiya qilingan.*

## MUNDARIJA

№	O‘quv-uslubiy majmua bo‘limlari	Bet
1	<b>Ma’ruzalar matni. Ma’ruzalar mavzusi.</b>	5
2	<b>1 – ma’ruza mavzusi. Huquqiy tarbiya, huquqiy madaniyat va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirish. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish. (2 s.)</b>	6
3	<b>2 – ma’ruza mavzusi. Ayol va bola huquqlari. (2s.)</b>	15
4	<b>3 – ma’ruza mavzusi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganish. (2 s.)</b>	32
5	<b>4 – ma’ruza mavzusi. Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va mehnat bozorini tartibga solish. (2 s.)</b>	53
	<b>1 - SEMESTR UChUN JAMI 8 SOAT MA’RUZA</b>	
3	Mustaqil ta’lim mavzulari	58
4	Glossariy	59
5	Ilovalar	61
5.1	Fan dasturi	63
5.2	Sillabus	68
5.3	Tarqatma materiallar	74
5.4	Xulosa	75
5.5	Foydalanilgan adabiyotlar	76

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**IJTIMOIIY GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI**

**“Inson huquqlari”, "Ayollar huquqlari",  
"Bola huquqlarii”**

**MAXSUS KURSDAN**

**O‘QUV-USLUBIIY MAJMUA**

**Termiz – 2023**

# I.O'QUV MATERIALLARI



## MA'RUZA MATERIALLARI

**1-mavzu: Huquqiy tarbiya, huquqiy madaniyat va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirish. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish.**

**Reja:**

- 1. Huquqiy tarbiya tushunchasi.**
- 2. Huquqiy ong, huquqiy madaniyat va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirish.**
- 3. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish.**
- 4. Inson huquqlarini ximoya qilishga doir xalqaro va milliy institutlar**

**“Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyati shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart.**

**Sh.M.Mirziyoyev.**

**Tayanch iboralar:** huquqiy tarbiya, huquqiy ong, inson huquqi, inson erkinliklari, tarbiyaviy jarayon, axloqiy tarbiya, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”.

### **1.1. Huquqiy tarbiya tushunchasi.**

**TARBIYA**– shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimgi va abadiy qadriyatdir.

**Tarbiya** – har bir insonning hayotda yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko‘nikmasini o‘zgalarga berish jarayoni.

Chunonchi, tarbiya keng sotsial ma’noda ijtimoiy hodisa sifatida qo‘llanilganda jamiyatning barcha tarbiyaviy vositalarini o‘z ichiga oladi.

Tarbiyaning ob’ektiv qonunlari – o‘quv-tarbiyaviy jarayonini tashkil etish va ijtimoiy hayotning shaxsni, uni o‘ziga xosligi hamda sifatlarini shakllantirish.

Tarbiya ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan hodisadir. Tarbiya yuksak ma’naviy, jismoniy barkamollik, yaxshining yomondan farqini anglash, yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirish qudratiga ega. Tarbiya kishilik jamiyatining hamma bosqichlarida rivojlanib, o‘sib, avloddan-avlodga vorislik vazifasini bajaradigan hodisa. Lekin har bir jamiyatda tarbiya maqsadi, vazifasi, mazmuni o‘ziga xosligi bilan farq qiladi.

Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Pedagogik adabiyotlarda «**Tarbiya**» atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televidenie va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatleri qaror topishi ham tezlashadi.

**Tarbiya** har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdur. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy ishlar tizimiga ega bo'lishi lozim.

**Tarbiya** jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izohlab kelingan. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog'liq jarayonlarga yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g'ayriilmiy sinfiy-partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliylikiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, o'zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o'rganilayotir. Natijada, O'zbekistonda tarbiya fani va amaliyotida oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o'ziga xos o'rni borligi tan olinib boshlandi. Shuningdek, tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo'ldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida tarbiyaning o'rniga keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol tarbiyaga doir hodisa va holatlarni to'g'ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to'g'ri tayin etish imkonini berdi.

**Tarbiya qoidalari.**

**Tarbiya qoidalariga quyidagilarni kiritish mumkin:**

- tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi
- tarbiyaning insonparvarligi va demokratligi
- tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi
- tarbiyada milliy madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning utsivorligi
- tarbiyalanuvchining yoshini va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish
- izchillik, tizimlilik, uzluksizligi.

Umuman olganda, o'sib kelayotgan yosh avlodni zamonamiz ruhiga mos, barkamol inson bo'lishlari uchun, tarbiyaning tarkibiy qismlari (aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik tarbiya va politexnik ta'lim) ga yangicha nigoh tashlash va o'sha ta'limni amalga oshirish yo'llarini ishlab chiqmoq lozim.

**Aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, mehnat tarbiyasi, estetik tarbiya, politexnik tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, fuqarolik tarbiyasi,**

### **Huquqiy tarbiya**

Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish huquqiy ta'lim va tarbiya jarayonining muhim bosqichidir. Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi **vazifalar** hal etiladi:

- o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati hamda ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar berish;
- o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni qaror toptirishga erishish;
- o'quvchilarda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish;
- ularda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod va huquqiy salohiyat)ning qaror topishini ta'minlash;
- o'quvchilar huquqiy madaniyatini (huquqiy me'yorlar, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to'g'ri baholash, harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, shuningdek, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish)ni shakllantirish.

### **Huquqiy tarbiya.**

Buyuk allomalar Forobiy, Ibn Sino, Beruniylar ham inson huquqlari masalasini chetlab o'tmaganlar. Somoniylar davrida amalda bo'lgan tartib-qoidalar, o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy tuzumi bu mutafakkirlarning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ular o'z asarlarida bu davrga baho berish bilan birga, qimmatli g'oyalarni ilgari surganlar, inson huquqlari va ularni himoya qilish to'g'risida ham o'z fikrlarini yozib qoldirganlar.



Inson huquqlari g'oyasi diniy va huquqiy asarlardagina emas, falsafiy tafakkurning eng sara mevalarida ham o'z aksini topgan. Markaziy Osiyoning eng yirik mutafakkirlaridan biri Abu Nasr Forobiy (873-950) o'zining «Fozil odamlar shahri» degan asarida aytgan, fozil shahar hukmdori «shahar uchun dastlabki imomlar tomonidan joriy etilgan qonunlar, qoidalar va rasm-rusmlarni biladigan, yodda tutadigan va o'z ishlari, harakatlarida ularga rioya etadigan» bo'lmog'i lozim. Boshqacha qilib aytganda, fozil shaharda inson huquqlarini amalga oshirishning eng asosiy omili bo'lgan qonun ustunligiga rioya etilmog'i lozim. Yer yuzida baxt-saodatga erishuvning shartlaridan biri ham shu. «Agar xalqlar baxt-saodatga erishish uchun bir-birlariga yordam beradigan bo'lsalar, butun kurrai zamin fozil va oqil bo'lib qoladi», - deb yozgan Forobiy insonparvarlik sohasida, muruvvatpeshalikda, shu jumladan inson huquqlari va erkinliklari sohasida xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini oldindan ko'rgandek. Forobiyning «Fozil odamlar shahri» jamoasi haqidagi ta'limoti, uning komil inson haqidagi fikrlari bian bog'lanib ketgan.

Komil inson jamiyatning teng huquqli, erkin fuqarosi bo'lishi lozimligi, jamoa uning huquqlarini hurmat qilishi, kishilarning tinch va osoyishta xayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlab berishi haqidagi fikrlar asarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Garchi, bu masala xayoliy tarzda tasvirlangan bo'lsa-da, biroq unda insonga g'amho'rlik qilish, uning xaq-huquqlarini himoya qilish zarurligi g'oyalari ilgari surilganligining o'zi muhim ahamiyatga egadir.

## **1.2. Huquqiy tarbiya, huquqiy madaniyat tushunchalari mazmuni va yuksaltirish masalalari.**

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida cezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan. Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarlilklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi.

Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalari aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2019 yilda PF-5618-sonli farmoni qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi ko'p sohalar kabi, O'zbekistonning huquq fani sohasida ham ko'plab yangi tarmoqlarni vujudga kelishiga va ularni rivojlanishiga imkoniyatlarni yaratib berdi. Chunki, masalan, ushbu inson huquqlari o'quv kursini olib qaraylik, ushbu kurs 90-yillargacha ilg'or g'arb mamlakatlarida o'quv yurtlarning engi asosiy predmetlaridan hisoblangani holda, boshqa ba'zi o'quv yurtlarida esa, huquqshunoslikning bunday predmeti borligi to'g'risida mutaxassislar ham bilmas edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin, inson manfaatlariga, uning huquq va asosiy erkinliklariga oliy qadriyat sifatida qaray boshladi. Bunga, 1991-yilning 30-sentabrda Inson huquqlari butunjahon Deklaratsiyasi O'zbekistonning a'zo bo'lishininng o'ziyoq yaqqol misol bo'la oladi. Chunki, ushbu yosh davlat mustaqilligining birinchi kunlaridanoq o'z oldiga, erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishni maqsad qilib qo'ygan va bu yo'lda jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilib kelingan umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tan olingan edi.

**Inson huquqlari deganda**, davlat yoki mansabdor shahslar tomonidan muayyan shahslarning qonuniy huquq va erkinliklari tushuniladi. Inson xuquqlarini buzilishi mavjud qonunlarga rioya qioya qilmaslik, fuqarolarning

o'z huquqlarini amalga oshirishlariga mansabdor shahslar toonidan to'sqilik qilish, yoki bo'lmasa, davlat tomonidan o'zining xalqaro majburiyatlariga zid holda qonunlar, yoki qonun osti hujjatlarini chiqarishlar orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Ya'ni davlat u yoki bu majburiy xalqaro hujjatni imzolash orqali inson huquqlariga oid xalqaro andozalarni bajarishni o'z zimmalariga oladilar, ammo mamlakatda ushbu hujjatlar yetarli ravishda implementatsiya qilinmaydi. Uning normalari milliy qonunchilikka qo'llanilmaydi. Mansabdor shahslar, ayniqsa, huquqni muxofaza qilish organlari vakillari odil sudlovni yoki huquqni qo'llashni amalga oshirish vaqtida o'z vazialarini su'istemol qiladilar, yoki o'z vakolat doiralarida chetga chiqailar va oqibatda muayyan shahslar yoki shahslar guruhining huquqlari va erkinliklarini poymol etadilar.

### **Inson huquqlarini himoya qilishga doir xalqaro hujjatlar.**

Inson huquqlari to'g'risidagi Xalqaro Bill inson huquqlarini himoya qilish borasida qabul qilingan eng asosiy hujjatlar majmui bo'lib, u bu sohada keyinchalik qabul qilingan barcha hujjatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Inson huquqlari to'g'risidagi Xalqaro Bill o'z ichiga inson huquqlari sohasidagi asosiy hujjatlarini birlashtirgan. Bu xalqaro hujjatlar quyidagilardan iboratdir:

1. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948-yil);
2. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt (1966-yil);
3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt hamda unga ilova qilingan I Fakultativ Bayonnoma (1966-yil) va o'lim jazosini bekor qilishga qaratilgan II Fakultativ Bayonnoma (1989-yil).

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yilning 10-dekabrida qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi insonning asosiy huquqlari va erkinliklarini belgilovchi dastlabki muhim tarixiy hujjat hisoblanadi. Inson huquqlari to'g'risidagi mazkur hujjat qabul qilinishidan oldin bu sohada muhim ishlar amalga oshirilgan edi. BMTning tashkil topishi va uning Nizomini qabul qilinishi inson huquqlari sohasidagi davlatlararo munosabatlarni yangi sifatli darajaga ko'tardi. BMT Nizomi xalqaro munosabatlar tarixida inson huquqlari bo'yicha davlatlarning keng hamkorligiga asos solgan birinchi ko'p tomonlama shartnoma bo'ldi. Ammo BMT Ustavini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida inson huquqlari va erkinliklariga nisbatan davlatlar turli yondashuvda ekanliklari namoyon bo'lib qoldi.

1946-yilda BMTning Inson Huquqlari bo'yicha Komissiyasi tashkil etilgan. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi Muqaddima va 30 moddadan iborat bo'lib, unda insonning asosiy huquqlari, qadr-qimmat, inson shaxsining benazirligi hamda erkaklar bilaen ayollarning teng huquqligi o'z ifodasini topgan. Deklaratsiyaning 1-moddasida huquqiy jihatdan asoslangan falsafiy fikrlar bayon etilgan bo'lib, unda "Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo'lib tug'iladilar. Ular aql va vijdon sohibidirlar va bir-birlariga birodarlarcha muomila qilishlari zarur" deyilgan. Inson huquqlari

Umumjahon Deklaratsiyasi qabul qilinganidan so'ng BMTga a'zo davlatlar tasdiqlashi zarur bo'lgan inson huquqlari to'g'risidagi Paktning sharnomaviy shaklini ishlab chiqishga kirishildi.

Paktlar deyarli 16-yilda ishlab chiqildi va qabul qilindi. 1950-yilda BMT Bosh Assambleyasi o'zining Rezolyusiyasida fuqarolik va siyosiy huquqlardan foydalanish shuningdek, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarga hamda madaniyat sohasidagi huquqlarga ega bo'lish o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi huquqlar ekanligini e'lon qildi. 1951-yilda Komissiya maxsus muassasalarning fikrlari va hukumatning takliflari

asosida iqtisodiy, ijtimoiy huquqlar to'g'risida 14 ta moddani tuzdi. U shuningdek bu huquqlarni amalga oshirish yuzasidan chora ko'rish to'g'risidagi 10 ta moddani shakllantirdi. Shunga muvofiq Paktning ishtirokchi davlatlari bu masala bo'yicha o'zlarining ijodiy ma'ruzalarini topshirishlari lozimligi qayd qilindi. 1951-yilda uzoq davom etgan muzokaralardan so'ng Bosh Assambleya komissiyasiga inson huquqlari to'g'risidagi ikkita Paktning loyihasini ishlab chiqishni va ulardan birida fuqarolik va siyosiy huquqlar, boshqasida esa, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlar yoritilishi lozimligini topshirdi. 1966 yilda oldindan belgilangan bitta Pakt o'rniga ikkita xalqaro Pakt ishlab chiqildi; iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt hamda fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt. Bundan tashqari, fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktga Fakultativ protokol ham qo'shimcha ravishda ishlab chiqilib, unda alohida shaxslarning paktga ifodalangan huquqlarining buzilishiga doir xabarlari ko'rib chiqilishi o'z ifodasini topishi zarurligi qayd etildi.

### **Inson huquqlarini ximoya qilishga doir xalqaro va milliy institutlar**

**Birlashgan Millatlar Tashkiloti.** BMT Ustavining muqaddimasida Birlashgan Millatlar xalqlari «kelajak avlodlarni urush kulfatlaridan halos etishga va insonning asosiy huquqlariga... ishonchni qayta qaror toptirishga, ijtimoiy taraqqiyot va keng ozodlik sharoitida turmushni yaxshilashga yordam berishga» qat'iy ahd qilganliklari aytiladi.

Ustavning 1-moddasiga muvofiq BMTning maqsadlaridan biri irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar hamma uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklarga bo'lgan hurmat-ehtiromni rag'batlantirish hamda rivojlantirishda xalqaro hamkorlik amalga oshirilishiga erishishdan iboratdir. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganidan buyon o'tgan yarim asrdan ortiq vaqt mobaynida BMT o'z Ustavida inson huquqlari sohasida nazarda tutilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan yaxlit va ko'lamdor strategiya ishlab chiqqan. Bu strategiyaning asosi inson huquqlariga oid xalqaro normalar va standartlar majmui bo'lib, hozirgi vaqtda inson faoliyatida ular qamrab olmagan sohaning o'zi yo'q. Ana shu puxta xalqaro-huquqiy negiz asosida huquqni muhofaza etishning xalqaro standartlarni yanada rivojlantirishga hamda ularning amalga oshirilishi, ularga rioya etilishi ustidan nazorat olib borishga, shuningdek inson huquqlarini buzish hollarini tekshirishga ko'maklashadigan mexanizmlarining g'oyat keng tarmog'i barpo etilgan. Mazkur strategiya

ijtimoiy informatsiya va texnik hamkorlik dasturi sohasidagi faoliyatning turfa xil turlari bilan mustahkamlangan bo'lib, bunday faoliyatdan ko'zlangan maqsad zahirida ularning inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya etishga qaratilgan kuch-g'ayratlari davlatlar tomonidan amaliy tarzda qo'llab-quvvatlanishiga erishishdek ezgu ishlar yotadi.

Bu xil tuzilmalar va faoliyat turlari BMTga inson huquqlari va asosiy erkinliklar uchun kurash yo'lida norma yaratish va rahbarlik qilish borasida yetakchilik rolini ta'minlaydi. Qolaversa, inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya etish vazifasi muayyan bir tashkilot zimмага olishi bilan bajariladigan yoki shunday tashkilot o'z zimmasiga oldi deya kifoyalansa bo'ladigan vazifalar toifasiga kirmaydi. BMTning inson huquqlari sohasidagi amaliy faoliyatida inson huquqlarini yalpi hurmatlash har bir mamlakatning, har bir fuqaroning yoki alohida olingan har bir guruh va jamiyatdagi har bir tashkilotning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab etadi degan asosiy g'oyaga asoslaniladi.

**Mintaqaviy institutlar.** Xalqaro tizim inson huquqlarini himoya qilish sohasida mintaqaviy institutlar, xususan Afrika, Amerika va Yevropada faoliyat ko'rsatib turgan tuzilmalarga o'xshash mintaqaviy tuzilmalarning qo'llab-quvvatlashiga tayanishi tabiiy. Bunday tuzilmalar tegishli mintaqaning o'ziga xos ijtimoiy, tarixiy va siyosiy sharoitlari bilan bog'liq inson huquqlari sohasidagi muammolarni hal etishga yordam beradigan vositalarni ta'min etish orqali xalqaro normalar va mexanizmlarni mustahkamlash ishida qo'shimcha, ammo muhim vazifani ado etadi.

**Nohukumat tashkilotlari.** Inson huquqlari borasidagi umumjahon madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynayotgan tegishli nohukumat tashkilotlar inson huquqlari sohasidagi xalqaro normalarni amalga oshirishda qo'shimcha madad bo'lib turibdi. Nohukumat tashkilotlar o'z xususiyatiga ko'ra fikrlarni ifoda etish erkinligiga, harakatlarning moslashuvchanligiga hamda erkin harakat qilish imkoniyatiga ega bo'lib, muayyan sharoitda bu hol ularga hukumatlar va hukumatlararo tashkilotlar hal etishga qodir bo'lmagan yoki, ehtimol hal etishga urinib ham ko'rmaydigan vazifalarning yechimini topish imkonini beradi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi g'oyalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan umumiy harakatga hamma va har kim qo'shilishi mumkin. Bu kompaniya ko'pincha ana shu ezgu ish yo'lida o'z hayotlarini xavf ostida qoldiradigan ming-minglab faollarning va fuqarolar guruhlarining madadi hamda qo'llab-quvvatlashiga tayanadi. Inson huquqlarini himoya qilish ishida qatnashayotgan odamlar soni to'xtovsiz ortib borayotganligi shunday muhit yuzaga kelishiga yordam bermoqdaki, bunda insonning erkinligi hamda qadr-qimmatini kutilgan va istalgan natijalar beradi.

Nohukumat tashkilotlar 1945-yildan e'tiboran BMT faoliyatiga va inson huquqlarini himoya qilish ishiga barakali hissa qo'shib kelmoqdalar. Ular axborot manbai vazifasini o'tamoqda hamda katta-katta o'zgarishlarga erishishga qodir bo'lgan kuch sifatida javlon urmoqda. Inson huquqlarini milliy darajada himoya

qilish. XX asrning ikkinchi yarmida ko'pgina mamlakatlar inson huquqlari bo'yicha asosiy xalqaro shartnomalarning ishtirokchisi bo'lib qoldilar. Bu hujjatlar inson huquqlari sohasidagi normalarni amalga oshirish yuzasidan huquqiy majburiyatlar yuklaganligi bois mazkur sohaga oid normalar xalqaro ko'lamda amalga oshiriladigan majburiyatlar darajasiga ko'tarildi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar ayrim shaxslarning o'zaro munosabatlarini hamda muayyan shaxslar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi. Shu sababli inson huquqlarini himoya etish va rag'batlantirish eng avvalo davlatning ichki vazifasi bo'lib, uning bajarilishi uchun javobgarlik har bir davlat zimmasiga tushadi.

Inson huquqlarini milliy ko'lamda himoya qilish tegishli qonun hujjatlari yordamida, mustaqil sud hokimiyati orqali, himoya vositalarining yakka tartibdagi kafolatlarini qonunchilik yo'li bilan rasmiylashtirish va amaliyotga tatbiq etish, shuningdek demokratik institutlar tashkil etish yo'li bilan ta'minlanadi. Bundan tashqari milliy va mahalliy ko'lamda ishlab chiqilib amalga oshiriladigan, mahalliy sharoitlar hamda an'analar inobatga olinadigan kampaniyalar ham borki, ular ma'rifiy va axborot xususiyatga ega bo'lgan samarali tadbirlar tariqasida tan olingan.

Inson huquqlari milliy ko'lamda himoya etilishini samarali tarzda amalga oshirish muammosi jahonda, ayniqsa XXI asr boshida katta qiziqish uyg'otmoqda. Ko'pgina mamlakatlarda boshqaruvning demokratik shakli paydo bo'lganligi yoki tiklanganligi inson huquqlari o'zagini tashkil etuvchi huquqiy va siyosiy asoslarni ta'minlashda demokratik institutlar o'ynaydigan rolning ahamiyati katta ekanligidan dalolat bermoqda.

Shunday qilib, inson huquqlarini samarali tarzda amalga oshirish eng avvalo bu huquqlarni rag'batlantirish va himoya etish uchun milliy infratuzilmalar yaratishni taqozo etishi aniq-ravshan ko'rinib turgan faktga aylanib bormoqda. Keyingi yillarda jahonning ko'pgina mamlakatlarida zimmasiga inson huquqlarini himoya etish bilan bog'liq aniq vazifalar yuklatilgan muassasalar tashkil etildi. Garchi bunday muassasalarning vazifalari har bir mamlakatda o'ziga xos bo'lib, bir-biridan farq qilsa-da, ularning hammasi bitta mushtarak maqsadga erishishni ko'zlaydi. Shu sababli ham ular inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya etish bilan shug'ullanuvchi milliy institutlar deb yuritiladi.

#### **Takrorlash uchun savollar:**

1. Nima uchun O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng "Inson huquqlari" o'quv kursini o'qitish dolzarb masalaga aylandi?
2. "Inson huquqlari" deganda nimani tushunasiz?
3. "Inson huquqlari" o'quv fanining maqsadi nimaga qaratilgan?
4. "Inson huquqlari" o'quv fanining obyeksi va predmetini tushuntirib bering.
5. "Inson huquqlari" o'quv fanining vazifalari nimalardan iborat?
6. "Inson huquqlari" o'quv fanini o'rganish usullarining ahamiyati nimada?
7. "Inson huquqlari" o'quv fanining boshqa fanlar bilan o'zaro munosabatlari xususida nima deya olasiz?

8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi fanining konstitutsiyaviy-g 'oyaviy asoslarini ko 'rsatib bering.
9. O 'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridagi o 'quv fanining g 'oyaviy asoslarini ko 'rsatib bering.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” mavzusida qilgan ma'ruzasida ilgari surilgan g'oyalarni tushuntirib bering.

## **2-mavzu: Ayol va bola huquqlari.**

### **Reja:**

- 1. Ayollar va bolalar huquqlarining tushunchasi, mazmun va mohiyati**
- 2. Ayollar huquqlarining O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ifodalanishi.**
- 3. Bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro va milliy mexanizmlar.**

**Dunyoda ikki qudratli kuch bor – biri qilich, yana biri esa qalam. Ular o'rtasidagi raqobat va kurash shiddatli. Lekin ulardan ham qudratliroq yana bir kuch bor – bu qo'liga qalam olgan ayoldir.**

**Muhammad Ali Jinna**

**Tayanch iboralar:** ayollar va bolalar huquqi, bola tarbiya, bola himoyasi axloqiy tarbiya, “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi”.

### **2.1. Ayollar va bolalar huquqlarining tushunchasi, mazmun va mohiyati**

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 75 yubiley sessiyasidagi nutqida **“biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlar ning davlat bosh qaruidagi o'rni tobora kuchaymoqda Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi”**, deb mamlakatimizda xotin-qizlar siyosati bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni nazarda tutdi. Xaqiqatdan xam mamlakatimizda xotin-qizlarning o'z» imkoniyatlarini to'laqonli ruyobga chikarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashga oid xalqaro-huquqiy hujjatlarni milliy konunchilikka uygunlashtirish orkali mustaxkam huquqiy asoslar yaratilmoqda. Xotin-qizlarning erkaklar bilan bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lishining, onalik va bolalik bilan bog'liq davlat siyosati yuritilayotgani, xotin-qizlarning ijtimoiy xayotdagi mavqeini kuchaytirish, siyosiy faolligini oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish bilan bog'lik olib borilayotgan ishlar aloxida e'tiborga loyiq.

Bugungi kunda mamalakatimizda gender tenglik bo'yicha institutsional asoslar xam kengaytirilmokda. Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini ta'minlash va kamsitishning xar qandai shakliga barxam berish bo'yicha milliy konunchilikda xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish bilan shug'ullanuvchi yangi Xotin - qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil kilindi. Mamlakatimizning 49 foizini xotin - qizlar, ularning kariyb 64 foizini 30-yoshgacha bo'lgai xotin - qizlar tashkil etar ekan, albatta bu yo'nalishda aloxida davlat siyosati olib borilishi zaruriyatdir. Gender tenglikni ta'minlash va ayollarning ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilash, oila institutini xar tomonlama qo'llab-97 quvvatlash va rivojlantirish, ayollar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish bo'yicha umume'tirof etilgan xalqaro normalarni milliy qonun hujjatlariga implementatsiya qilish, shuningdek, ayollar xuquqiy madaniyatini oshirish kabi yunalishlarda qator a maliy ishlar olib borildi.

O'zbekiston xotin-qizlar masalalariga oid xalqaro majburiyatlarini vijdonan bajarishga harakat qilmoqda. Davlatimiz tomonidan "Xotin - qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barxam berish tug'risida"gi konvensiyaning a'zosi sifatida milliy konunchilikka uning normalarini uyg'unlashtirish masalasiga aloxida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, mamlakatimizda bu borada muxim qadamlar quyildi. 2019- yil sentabr oyida O'zbekiston Respublikasining **"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq xamda imkoniyatlar kafolatlari tugrisida"**gi xamda **"Xotin - qizlarni tazyik va zo'ravonlikdan ximoya qilish to'g'risida"**gi qonunlar qabul qilindi. Mamlakatimizda gender tenglikka erishishda xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini yanada kuchaytirish, shu orqali oilani musthkamlash, yuqori intellektual darajadagi yosh avlodni voyaga yetkazish, jamiyat barkarorligini ta'minlashning garovi xisoblanadi.

**Ayollar huquqlari bo'yicha xalqaro huquqiy hujjatlar.** Bunday hujjatlardan biriga BMT Bosh Assambleyasining 1967-yil 7-noyabrdagi 2263 (XXII) rezolyusiyasi bilan qabul qilingan "Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risida deklaratsiya" kiradi. Ushbu deklaratsiyada quyidagi huquqlar o'z aksini topgan: Ayollarning erkaklar bilan teng huquqliligini inkor qilishga yoki cheklashga olib keluvchi ularga nisbatan kamsitish o'z asosiga ko'ra adolatsizlik hisoblanadi va inson qadr-qimmatiga qarshi jinoyat ekanligi (1-modda);

Ayollarga nisbatan kamsituvchi hisoblangan mavjud qonunlar, odatlar, qarorlar va amaliyotni bekor qilish, erkaklar va ayollar teng huquqliligining tegishli huquqiy himoyasini o'rnatish uchun barcha zarur choralar ko'rilishi lozim, jumladan:

a) erkaklar va ayollarning tengligi tamoyili konstitutsiyaga kiritilishi yoki qonun bilan boshqacha tarzda kafolatlanishi lozim;

b) Birlashgan Millatlar Tashkiloti va ixtisoslashgan muassasalarining ayollarga nisbatan kamsitishni bartaraf etishga oid xalqaro hujjatlari ratifikatsiya qilinishi yoki ularga qo'shilish lozim yoki imkon qadar qisqa



muddatlarda to‘laligicha hayotga tatbiq etilishi lozimligi (2-modda); Ayollarning to‘laqonli emasligi g‘oyasiga asoslangan tushunchalarga barham berish va odatlar va boshqa amaliyotni tugatishga jamoatchilik fikrini tayyorlash va milliy intilishlarni qaratish maqsadida barcha tegishli choralar ko‘rilishi lozimligi (3-modda); Ayollarga erkaklar bilan bir xil sharoitlarda hech bir kamsitishsiz:

a) saylovlarda ovoz berish huquqi va ochiqdan-ochiq saylanadigan organlarga saylanish huquqi; b) barcha ochiq referendumlarda ovoz berish huquqi;

c) davlat xizmatida bo‘lish huquqi va barcha jamoatchilik vazifalarini bajarish huquqini ta‘minlash uchun barcha tegishli choralar ko‘rilishi lozim.

Ushbu huquqlar qonunchilik bilan kafolatlangan bo‘lishi lozimligi (4-modda); Ayollar o‘z fuqaroligini olish, o‘zgartirish va saqlab qolishda erkaklar bilan bir xil huquqlarga ega bo‘lishlari lozim. Xorijlik bilan nikohda bo‘lish xotinning fuqaroligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatmasligi kerak, xususan uni fuqaroligidan mahrum qilishi va erining fuqaroligini qabul qilishga majbur qilishi mumkin emasligi (5-modda);

1. Har qanday jamiyatning asosiy hujayrasi bo‘lib qolayotgan oilaning yaxlitligi va tinchligini saqlashga ziyon yetkazmagan holda, turmushga chiqqan va chiqmagan ayollar fuqarolik huquqi sohasida erkaklar bilan bir xilda huquqlarga, xususan:

a) mulkni sotib olish va meros qilib qoldirish, shuningdek, uni boshqarish, foydalanish va tasarruf qilish huquqi, jumladan, nikohda bo‘lgan davrda ega bo‘lingan mulkni ham;

b) teng huquq va muomalaga layoqatlilik;

c) shaxslarning ko‘chib yurishi to‘g‘risidagi qonunchilikda ham erkaklar bilan bir xil huquqlarga ega bo‘lishlarini ta‘minlash uchun barcha tegishli choralar, asosan, qonunchilik choralari ko‘rilishi lozim.

2. Er va xotin holatining tengligi tamoyilini ta‘minlash uchun barcha tegishli choralar ko‘rilishi lozim, jumladan:

a) ayollar erkaklar ega bo‘lgani kabi turmush o‘rtog‘ini erkin tanlash va nikohga faqat o‘zining erkin va to‘la roziligi bilan kirish huquqiga ega bo‘lishlari lozim;

b) ayollar nikohda bo‘lgan paytlarida va uni bekor qilishda erkaklar bilan teng huquqlarga ega bo‘lishlari lozim. Barcha holatlarda bolalarning manfaatlari ustuvor bo‘lmog‘i kerak;

c) ota-onalar bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga ega bo‘lishlari lozim. Barcha holatlarda bolalarning manfaatlari ustuvor bo‘lmog‘i kerak.

3. Bolalarning nikohlari va qizlarning jinsiy balog‘atga yetmay turib unashtirilishi taqiqlanishi lozim, va eng kam nikoh yoshini aniqlash va nikohni fuqarolik holatlarini qayd etishda majburiy ro‘yxatdan o‘tkazish maqsadida samarali choralar, jumladan qonunchilik choralari ko‘rilmog‘i lozimligi (6-modda);

Ayollarga nisbatan kamsitish xarakteriga ega bo'lgan jinoyatlar to'g'risidagi qonunchilikning barcha holatlari bekor qilinishi lozim (7-modda);

Ayollar bilan savdo qilish va fohishalikdan foydalanishning barcha ko'rinishlariga barham berish uchun barcha tegishli, jumladan, qonun orqali choralar ko'rilishi lozimligi (8-modda);

Barcha pog'onadagi ta'lim sohasida qizlar va va turmushga chiqqan va chiqmagan ayollarga erkaklar bilan teng huquqlarni ta'minlash uchun barcha tegishli choralar ko'rilmog'i lozim, va xususan:

a) ta'lim olishga teng sharoitlar va barcha turdagi o'quv maskanlarida, jumladan universitetlar va kasb-hunar, texnika va maxsus maktablarda ta'lim olish;

b) o'quv maskanining har ikki jinsdagi shaxslarni birgalikda o'qitishga mo'ljallangan yoki mo'ljallanmaganligidan qat'i nazar xuddi shu ta'lim dasturlari, bir xildagi imtihonlar, xuddi shu malakadagi o'qituvchilar tarkibi, xuddi shunday sifatdagi o'quv xonalari va jihozlar;

c) ta'lim olish uchun stipendiya va boshqa imtiyozlarni olishning teng imkoniyatlari;

d) keyingi bosqich ta'lim dasturlari, jumladan kattalarning o'qimishlilikini ta'minlash dasturlari uchun teng imkoniyatlar;

e) oilalarning sog'lig'i va farovonligini ta'minlashga ko'maklashish maqsadida ma'rifiy xarakterdagi ma'lumotlarni olishligi (9-modda);

1. Turmushga chiqqan va chiqmagan ayollarga ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda erkaklar bilan bir xildagi huquqlarni, jumladan:

a) fuqarolik holati sababli yoki boshqa belgilarga ko'ra kamsitishlarsiz kasbiy tayyorgarlikni olish, ishlash, kasb va mashg'ulotlarni erkin tanlash va o'z kasbi va mutaxassisligida takomillashib borish huquqini;

b) erkaklar bilan bir xildagi mehnat uchun teng haq va teng moddiy ta'minot olish huquqini;

c) ishsizlik, kasallik, qarilik va ish qobiliyatini boshqa tarzda yo'qotganlik holatlarida haq to'lanadigan ta'til, nafaqa ta'minoti va moddiy ta'minot huquqini;

d) erkaklar bilan bir xildagi shartlarda oila uchun nafaqa olish huquqini ta'minlash uchun barcha tegishli choralar ko'rilishi lozim.

2. Ayollarga nisbatan nikohda bo'lganlik yoki homiladorlik sabablariga ko'ra kamsitishning oldini olish va ularning samarali ishlash huquqini ta'minlash uchun ularning nikohga kirishlari yoki homiladorliklari holatlarida ishdan ozod qilishning oldini olish va avvalgi ishga qaytish kafolati bilan homiladorlik uchun haq to'lanadigan ta'til berish va kerakli ijtimoiy xizmat turlarini, jumladan bolalarga qarash imkoniyatini ta'minlash uchun tegishli choralar ko'rilishi lozim.

3. Ayollar organizmining fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'lum ish turlarida ularni himoyalashga qaratilgan choralar kamsituvchi deya hisoblanmasligi lozimligi (10-modda);

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tamoyillariga muvofiq erkaklar va ayollarning teng huquqliligi tamoyili barcha davlatlarda hayotga tatbiq etilishi talab qilinadi.

3. Shuning uchun hukumatlarga, nohukumat tashkilotlariga, va xususiy shaxslarga mazkur Deklaratsiyadagi mavjud tamoyillarni amalga oshirishga ko'maklashish uchun ularga bog'liq bo'lgan barcha ishlarni qilishlari tavsiya etiladi (11-modda).

Ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro mexanizmlar. Xotin-qizlarni kamsitishlarga barham berish bo'yicha qo'mita Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning amalga oshirilishini nazorat etib borish maqsadida ta'sis etilgan. Qo'mita 23 ekspertdan tashkil topadi. Ular yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan, xotin-qizlarning huquqlari sohasida bilim va tajribasi bilan ajralib turadigan va nomzodi Konvensiya qatnashchisi bo'lgan davlatlar tomonidan ko'rsatiladigan shaxslardan tarkib topgan ro'yxatdagi nomzodlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

Qatnashchi davlatlar tomonidan taqdim etilgan ma'ruzalar va boshqa har qanday axborotlarni Qo'mita o'z sessiyalarida o'rganib boradi. Qo'mita ana shu ma'ruzalarni ko'rib chiqish natijalarini inobatga olgan holda takliflar va tavsiyalar tayyorlaydi. U umumiy tavsiyalar chiqarishi ham mumkin. Bu tavsiyalardagi tadbirlarni qatnashchi davlatlar Konvensiya bo'yicha zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarish maqsadida ko'pincha o'z dasturlariga kiritadilar.

**2.2. Xotin-qizlarning ahvoli bo'yicha Komissiya** Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash tomonidan 1946-yilda ta'sis etilgan. Komissiyaning vazifalari doirasiga xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy, fuqaroviy, ijtimoiy sohalar va ta'lim sohasidagi huquqlarini rag'batlantirish to'g'risida Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashga tavsiyalar va ma'ruzalar tayyorlash, shuningdek erkaklar bilan xotin-qizlarning teng huquqliligi prinsipini amalga oshirish maqsadida xotin-qizlar huquqlari sohasidagi eng muhim muammolar bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilish to'g'risida tavsiyalar va takliflar tayyorlash vazifalari kiradi. Xotin-qizlarning ahvoli bo'yicha Komissiyaga xotin-qizlarning ahvoli bo'yicha umumjahon konferensiyasida 1985-yilda qabul qilingan xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash sohasidagi istiqbolga mo'ljallangan Nayrobi strategiyasi amalga oshirilishini nazorat qilish, shu yo'nalishdagi ishlarning ahvoliga baho berib tahlil qilib borish vazifasi topshirildi. Xotin-qizlarning ahvoli bo'yicha komissiya xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlar to'g'risida alohida shaxslardan ham, bir guruh shaxslardan ham olingan xabarlarini ko'rib chiqishi mumkin. Yakka tartibdagi shikoyatlar bo'yicha choralar ko'rilmaydi.

Buning o'rniga mavjud muammolarni hal etish uchun siyosiy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida xotin-qizlarni kamsitish sohasidagi tamoyillarni aniqlashga qaratilgan taomildan foydalanish bilan cheklanadilar.

**Ayollarning shaxsiy huquq va erkinliklari.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asosan har bir shaxs (24 modda), shaxsiy hayot va uy-joy daxlsizligi (27-modda), sud himoyasi (26 modda) kabi ajralmas huquqlarga ega. Har bir shaxs o'z hayotiga va qadr-qimmatiga tajovuz qilinishidan, shaxsiy hayotiga aralashuvdan himoya qilinish, uy-joy daxlsizligi (27 modda), fikrlash, so'zlash, e'tikod erkinligi (29 modda), ko'chib yurish (28 modda), vijdon (din tanlash) erkinligi (31 modda).

**Ayollar huquqlarini buzilishi bilan bog'liq huquqbuzarliklar.** Bunday huquqbuzarliklarga birinchi navbatda ularga nisbatan sodir etiladigan zo'rvonlik kiradi. Zo'rvonlik - bu insonga jismoniy, ruhiy ta'sir qilish shaxsning hayotiga, sog'lig'iga, jinsiy daxlsizligiga va erkinligiga taxdid solishdir.

«Ayollarga nisbatan o'tkazilgan har qanday zo'rvonlik –har qanday jinsiy belgiga asoslangan tazyik, ayol salomatligiga jismoniy, jinsiy yoki ruhiy putur yetkazadigan, yoki unga azob-uqubat, iztiroblar chekishga olib keladigan, shuningdek shaxsni yoki jamoa erkinligidan maxrum kilingan yoki maxkum etilgan harakatlarini sodir etilishi tushuniladi.

Demak ayollarga yetkaziladigan zo'rvonlik quyida keltirilgan xodisalarga muvofiq keladi, ammo ular bilan cheklanib qolmaydi:

a) oilada o'rin tutadigan jismoniy, jinsiy va ruhiy zo'rvonliklar, jumladan kaltaklash, ayollarga ziyon keltiradigan turli hil operatsiyalar va boshqa turdagi hayot amaliyotida kuzatiladigan an'anaviy xodisalar, shuningdek nikoxdan tashqari bo'lgan zo'rvonlik va ayollarni nomus-nafsoniyatiga zo'rvonlik qilish bilan bog'liq bo'lgan tazyiqlar;

v) jamiyatda alohida o'rin tutgan jismoniy, jinsiy va ruhiy zo'rvonlik, jumladan zo'rlab nomusga tegish, jinsiy aloqaga majburlash, va ish joylarida, o'quv yurtlarida va x.k joylarda ayollarga nisbatan kuzatiladigan tovlamachilik, qo'rqitishlar, ularni kamsitish, ayollarni foxishalik qilish uchun sotish xamda foxishabozlikka majbur qilish;

s) ayollarga nisbatan qo'llanilgan jismoniy, jinsiy va ruhiy zo'rvonliklar qaerda sodir etilayotganidan qat'iy nazar, davlat tarafidanmi yoki davlatning layoqatsizligidanmi baribir ayollarni kamsitilishiga kiradi. (IV Ayollar xolati buyicha Jahon Konferensiyasi Harakatlar dasturi, 113-bandi)

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi fuqarolarning mehnat munosabatlarini tartibga soladi va mehnat muxofazasini kafolatlaydi.

Mehnat muxofazasi to'g'risidagi qonunlar ayollar uchun muxim ahamiyatga ega, chunki ular reprodktiv salomatlik va onalikni muxofaza qilishga qaratilgan. 1919-yilda tuzilgan va hozirgi vaqtda BMTkoshida ishlayotgan Xalqaro Mehnat Tashkiloti kishilarning mehnat faoliyati va mehnat muxofazasi masalalari bilan shug'ullanadi. Ayollar mehnatini muxofaza qilishga oid me'yoriy xujjatlar ilk bor ayollarni ishga qabul qilish, ularni ish bilan ta'minlash va xokazolar bilan bog'langan masalalarda teng huquqliligi to'g'risidagi qonunlar paydo bulguncha qabul qilingan edi. Bu me'yorlar ayollarni og'ir jismoniy mehnatdan, tungi vaqtda, zararli

sharoitlarda ishlashdan va xokazolardan muxofaza qilishni ko'zda tutadi. Ishtirokchi davlatlar xotin-qizlar kamsitilishiniga barxam berish maqsadida ish bilan ish bilan band bo'lish, ijtimoiy va iqtisodiy hayotning boshqa soxalarida erkak va ayollar tengligi asosida ularning teng huquqlarini ta'minlash borasida tegishli barcha choralarini ko'radilar.

«Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida» konvensiya, 11, 13-moddalar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi har bir insonning g'oyat xilma-xil shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy huquqlari majmuini mustaxkamlaydi. Xotin-qizlar bilan erkaklarning teng huquqliligi eng asosiy konstitutsiyaviy prinsiplardan biridir. O'zbek oilasining hayotida turmushga chiqish eng asosiy voqeadir. Otasining uyidagi o'tgan hayoti uning kelin, xotin, ona bo'lishiga tayyorgarlikdir. Xalq maqoli «Qiz bola bironing xasmidir» deydi.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinlikka ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chikishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar fakat qonun bilan belgilab qo'yiladi, xamda ijtimoiy adolat prinsplariga mos bo'lishi kerak. (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi.) Ayollar oilada g'oyatda muxim o'rin tutadilar. Ular jamiyatning rivojlanishi va oilaning farovonligini ta'minlashda o'zlarining katta xissalarini qo'shadilar. Bolalar tarbiyasi majburiyati ota-onalar, ayollar va erkaklar xamda butun jamiyatda o'zaro taqsimlashni talab qiladi. O'z qadr-qimmatini, huquqlari va o'z-o'zini himoya qilish tushunchalarini anglab yetmagan, jinsiy va reproduktiv madaniyati past darajada bo'lgan yosh qizlar ota-onalarining zo'rliigi bilan turmushga chikmokdalar, ya'ni mustakil hayotga qadam qo'ymokdalar, lekin ko'p xollarda ular o'z e'rlari va uning ota-onasiga butunlay qaram bo'lib, ma'naviy va moddiy kamsitishlarga uchramokdalar. Bunday xolatlarda kelinlar o'zlarini oilaning tulaq qimmatli a'zosidek xis eta olmaydilar, bu esa har xil majoro va qarama qarshiliklarga sabab bo'ladi.

1 Ishtirokchi davlatlar Xotin-qizlarning qonun oldida erkaklar bilan tengligini tan oladilar.

2. Ishtirokchi davlatlar Xotin-qizlarga erkaklar bilan bir xil fuqarolik huquqlarini va ularni amalga oshirishning bir xil imkoniyatlarini beradilar, jumladan ular mulkni boshqarish va shartnomalar tuzish vaqtida Xotin-qizlarning teng huquqlarini, shuningdek, tribunal va sud muxokamasining barcha boskichlarida ularga nisbatan teng munosabatlarni ta'minlaydilar. (Xotin-qizlarni huquqlarinikamsitilishining barcha shakllariga barxam berish to'g'risida konvensiyaning 15-moddasi)

Oilada ta'ziqlardan xoli bo'lish huquqi. Oilada ayollarga nisbatan tayzikning turli shakllarda bulishi mumkin. Ta'ziq oilalarda, ularning ijtimoiy maqomiga bog'liq bo'lmagan xolda yuz berishi mumkin. Tazyiq hayotga, sog'liqqa, jins daxlsizligiga, erkinlikka qarshi, shaxsning kadr-kimmati, gururiga qarshi qaratilgan jinoyat.

Tazyiq jinoyatning shunday turlariga kiradiki, ular haqidagi xabar huquqni himoya qilish organlariga kamdan-kam yetib boradi, chunki jabrlanuvchilar ko'p xolatlarda shikoyat kilmaydilar. Mutasaddi mutaxassislar ayollarni urish, kaltaklash, azoblashni-ijtimoiy muammo deb xisoblamaydilar, chunki ular kishilarga, bolalikdan odat tusiga kirgan, gender stereopitlari zamirida yotadi deb uylamaydilar.

Bola, agar jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetishmagan bo'lsa, maxsus ravishda muhofaza va g'amxo'rlikka, binobarin, tug'ulgunga qadar va tug'ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj bo'ladi.

Bola to'g'risidagi Konvensiyaning 1-moddasiga ko'ra «18-yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi».

Bolalar alohida g'amxo'rlik va yordam huquqiga ega bo'lishlari. Jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanish oila va tibbiy muhit uning barcha a'zolari, ayniqsa, bolalar o'sib ulg'ayishlari va farovonlikka ega bo'lishlari, sog'lom va har tomonlama uyg'unlashgan holda kamolotga yetishi uchun u oila g'amxo'rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushirish vaziyatida o'sishi, jamiyatda mustaqil hayotga to'la tayyorlanishi, ayniqsa tinchlik, qadr-qimmat, sabr-toqat, erkinliklar, tenglik va birdamlik ruhida tarbiyalanishi lozim. Har bir bola uchun ko'zda tutilgan barcha huquqlarni, hech qanday kamchiliklarsiz, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, bolaning sog'lig'i va tug'ilishi, uning onasi yoki qonuniy vasiysi yoki biron-bir boshqa holatlardan qat'i nazar hurmat qilinishi va huquqlari ta'minlanishi kerak.

Bularni amalda bajarilishi uchun ijtimoiy masalalar bilan shug'ullanuvchi davlat va xususiy muassasalar, sudlar, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan bolaning manfaatlari yaxshiroq ta'minlanishiga e'tibor berilishi lozim. Ma'lumki, huquqiy hujjatlar asosida har bir bola tug'ilgan zahoti ro'yxatga olinadi va tug'ilgan daqiqasidan boshlab ism bilan aytilish va fuqarolikka ega bo'lish, shuningdek iloji boricha o'z ota-onasini bilish va ular g'amxo'rliklaridan bahramand bo'lish huquqlariga ega bo'ladi.

Shuningdek bola o'zining fikrini erkin ifodalash vijdon va din erkinligi, ilm olish, dam olish hamda ota-onasi turli davlatlarda yashayotgan bola alohida holatlardan tashqari, otasi va onasi bilan muntazam ravishda shaxsiy munosabatlar va to'g'ridan-to'g'ri aloqalar bog'lab turish huquqiga haqli hisoblanadi.

Konstitutsiyada ko'rsatilgan onalik va bolalikni muhofaza qilish masalasi O'zbekiston Respublikasining bir qator qonunlari bilan tartibga solinadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyundagi «Bolali oilalarga davlat ijtimoiy yordami tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi va 1994-yil 23-avgustdagi «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralari to'g'risida»gi va boshqa farmonlar mamlakatimizda bolalikni muhofaza qilish, bolalarning jismoniy ahloqiy va ma'naviy kamol

topishi uchun qulay shart-sharoit tug'dirish chora-tadbirlarini amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

Ayollarga berilgan keng huquq va erkinliklar, ular to'g'risidagi davlat g'amxo'rliqi amalga oshirilib, respublikamiz Mehnat Kodeksi, Fuqarolik, jinoyat kodekslarida, sog'liqni saqlash, fuqaroning davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi va boshqa qonunlarda o'z ifodasini topgan. Shunga alohida ahamiyat berish lozimki, O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksida ayollar Mehnat qilish huquqining amalga oshirilishi uchun keng imtiyozlar berilgan, uni hayotga tadbir qo'yilishi kafolatlangan. Jumladan, homilador ayollarni, bolasi uch yoshga yetmagan ayollarni tungi ishlarga jalb qilishga, ish vaqtidan tashqari ishlashga, dam olish kunlarida ishlatishga va xizmat safarlariga yuborishga yo'l g'o'yilmaydi.

Homilador ayollarni yengilroq ishga ko'chirish, bu imtiyoz homilador ayolni va kutilayotgan go'dakning salomatligini himoya qilishga qaratilgan. Bundan tashqari onasiz qolgan bolalarni tarbiyalovchi shaxslarga imtiyozlar va kafolatlar berilishi, ularning sog'lom bo'lib o'sishi, tarbiyalanishi va yaxshi sharoitda yashashning kafolatidir. Ayollarga yuqorida aytib o'tilgan huquq va erkinliklarning har qanday buzilishlaridan himoya qilishda jinoyat kodeksining huquqiy roli katta.

Jumladan, JK-148-moddasi «Ayolni homiladorligi yoki yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatish, shuningdek JK-136-moddasi «yolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish yohud ayolning erkiga hilof ravishda u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'rilash, shuningdek, ayolning erga tegishiga to'sqinlik qilish» kabi holatlar uchun jazo belgilanishi.

O'zbekiston Respublikasining huquqiy hujjatlarida ayollar bilan birgalikda bola ya'ni yoshlar huquq va erkinliklari ham o'z aksini topgandir. Belgilangan qoidalarga rioya qilmaganlik uchun esa javobgarliklar ko'rsatilgan. Bola huquqlariga oid xalqaro normalar. 1989-yildagi Bola huquqlari konvensiyasi. Konvensiya 54 moddani o'z ichiga olgan bo'lib, ularni 4 ta kategoriyadagi huquqlarga bo'lish mumkin:

**2.3. Yashash huquqi va dam olish huquqi:** bola talablarini qondirish va xayotiy huquqlarini o'zida mujassam etish kabi asosiy shartlarni hamda tibbiy xizmatdan foydalana olish, ovqatlanish, boshpanaga ega bo'lish kabi adolatli me'rlarni o'z ichiga oladi.

2. Rivojlana olish huquqi: bolalarning o'z qobiliyatlarini kengroq rivojlantirishga erishishlari zarur. Masalan, bilim olish, o'yin, hordiq chiqarish, madaniy faoliyatlar, axborot olish va vijdoniy poklik kabi huquqlar.

3. Bolalar zo'ravonlik va ekspluatatsiya qilinishdan himoyalangan bo'lilari shart. Bu borada huvidagi muammolarga, ya'ni: qochoq bolalar masalasidagi muammolarga, adliya tizimidagi zo'ravonliklarga va qiynoqlarga, bolalarni qurolli mojarolarga jalb etish muammolariga, bolalar

mehnatiga, balogʻat yoshiga yetmaganlarni seksual ekspluatatsiya qilish va oʻsmirlarning giyoxvand moddalarni isteʼmol qilish muammolariga alohida eʼtibor berilgan boʻlishi kerak.

4. Ishtirok eʼtish huquqi: bolani jamiyat va mamlakat xayotida faol ishtirok eʼtishga chorlaydi. Bu kategoriya, bolalrning hayotga taalluqli boʻlgan muammolar boʻyicha jaoʻonshumuml yigʻilishlarda va tadbirlarda ishtirok eʼtish huquqini va oʻz fikr-muloxazalarini aytishda eʼrkin boʻlish kabi huquqlarini belgilaydi. Bollar ulgʻayib borishlari davomida jamiyat hayotida faol ishtirok eʼtish uchun barcha paydo boʻlib boruvchi imkoniyatlarning hammasiga eʼga boʻlib borishlari hamda hayotiy muhim yechimlarning masʼuliyatini xis qilgan holda ularni oʻz zimmalariga olishga tayyor boʻlishlari kerak.

**Yuvenal adliya tushunchasi.** Yuvenal yustitsiya (Juvenile Justice) – balogʻatga yetmagan bolalar ishlari boʻyicha odil sudlov yurituvchi organlar tizimi, sud sohasining oʻziga xos huquq normalari majmui va protsessual prinsiplari, sudlov hokimiyatini amalga oshirishning alohida shakllari va usullari tizimidir. Voyaga yetmagan shahslar orasida jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan normalar.

Voyaga yetmagan shahslar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro hujjatlar: BMTning balogʻatga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari. (Pekin qoidalari), BMTning balogʻatga yetmagan bolalar oʻrtasidajinoyatchilikning olidini olishga qaratilgan dasturiy prinsiplari. (Eʼr-Riyad dasturiy pinsiplari). BMTning ozodlikdan mahrum eʼtilgan balogʻatga yetmagan bolalarni himoya qilishga doir qodilari.

BMTning qamoqda saqlash bilan bogʻliq boʻlmagan choralarga doir minimal standart qoidalari (Tokio qoidalari). Bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan milliy mexanizmlar. Ayollar huquqlarining Oʻzbekiston Respublikasi qonun xujjatlarida ifodalanishi. Demokratik oʻzgarishlar, bozor iqtisodining rivojlanishi milliy qonunlarimizni islox eʼtish zarurligini taqazo qildi. Jinoyat kodeksida ayollar huquqi va manfaatlari muhofaza qilishga qaratilgan normalar mavjud. Jinoyat kodeksining aloxida qismi birinchi boʻlim shaxsga qarshi jinoyatga qaratilgan, yaʼni inson hayotiga qarshi jinoyat xaqida. 97-modda ikki qismdan iborat: birinchi qismi–qasddan odam oʻldirish, 97-modda 2-qismi javobgarlikni ogʻirlashtiradigan xolatlarda qasddan odam oʻldirish. 97-modda 2-qism «b» bandida xomilador ayollarni qasddan oʻldirish nazarda tutilgan. Bu xil qasddan odam oʻldirish jinoyat turi ijtimoiy xavfsizlik xolatini oshiradi, chunki subʼekt, yaʼni jinoyatchi ikki shaxsga – ayol va xomila hayotiga tajovuz qilib, inson hayotini davom eʼttirishga zomin boʻlgan xisoblanadi.

JK 103-moddasida oʻzini-oʻzi oʻldirishgacha olib borgan holat uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Mazkur modda ikki qismdan iborat. Ikkinchi qismida oʻziga moddiy tomondan yoki boshqa jixatlari bilan qaram boʻlgan shaxsni muntazam ravishda or-nomusi va qadr-qimmatini diskriminatsiya



qilish, unga shavqatsizlarcha munosabatlarda bo'lish ko'zda tutilgan. Insonga nisbatan shavqatsiz munosabatda bo'lish, uning qadr-qimmatini muntazam diskriminatsiya qilish va shaxsni o'limgacha olib borish jiddiy xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi tan jaroxatining turli ko'rinishlari uchun javobgarlikni ko'zda tutadi. JKning tan jaroxati to'g'risidagi moddalarini tahlil qilinganda ularning asosiy klassifikatsiyasiga ko'ra sog'liqqa zarar yetkazganlar og'ir jazo oladilar. Sud-tergov amaliyoti ko'rsatadiki, ko'pincha mushlashish, kaltaklash, azob berish jinoiy jazo nazaridan chetda bo'ladi va ma'muriy jazo bilan kafolatlanadilar. Buni uydagi zo'ravonlik xolatlarida ko'zdatish mumkin.

Jinoyat kodeksining 104-105-moddalarida qasddan tan jaroxati yetkazgan va qasddan o'rtacha og'irlikda jaroxat yetkazganlar jazosi va javobgarligi og'irlashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi JKda ayollarni abort qilishga majburlovchilar uchun xam modda bor. Bu modda 1994-yilda birinchi marta kiritildi. Jinoyat Kodeksining bir necha moddalarida jinsiy erkinlikka, jumladan zo'rqlash, ko'p xotinlik, o'n olti yoshga yetmaganlarga axloqsizlik qilish va boshqalarga qarshi jinoiy javobgarlik belgilangan.

Oila Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 5-bobida er-xotinning mulkiy munosabatlari, ularning me'yorlari, mulkning qonuniy tizimi, shartnomaviy mulk rejimi tartibga solinadi. Qonuniy rejimda er-xotinning birgalikdagi mulklari tushiniladi. Er-xotining birgalikdagi mulkiga nikoxdan keyin yig'ilgan mulklari kiradi, bu mulklar ularning har ikkisi tegishli va ular egalik qilishga, undan foydalanishga, uni boshqarish huquqiga egadirlar. Bu mulklar kimning nomiga olinganligi yoki ro'yxatdan o'tkazilganligi, er-xotining qaysi biridan kimning nomiga mablag' o'tkazilganligi jiddiy huquqiy ahamiyatga ega emas. Nikoxdan keyin uy-xo'jalik ishlari va bolalar tarbiyasi bilan shug'illangan, kasalga yoxud qari ota-onalarga qaragan, boshqa bir sabablarga ko'ra mustaqil pul topmagan er-xotin xam mulkka egalik qilish huquqiga ega.

Mulk rejimi to'g'risida shuni ta'kidlash kerakki, er-yoki xotin tomonidan uchinchi shaxs xisobiga o'tkazilgan mablag'ni ular o'zaro bo'lish huquqiga ega emas.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 30-modda 3-qismida nikox shartnomasi albatta yozma shaklda tuzilishi va u notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi nazarda tutilgan. Agar bunday tartibga rioya etilmasa, nikox shartnomasi xaqiqiy emas deb topiladi. Nikox shartnomasi ayollarga juda katta huquqlar beradi. Shartnomada qo'shimcha shartlar va ba'zi bir o'zgarishlar bilan er-xotin mol-mulking qonuniy rejimi o'z ifodasini topadi.

Shartnomada qo'shimcha daromad er-xotinning umumiy daromadi tarkibiga kirmaydi. Yoxud pensiya, nafaqa kolleksiyalarga xam shundaylar tarkibiga kiritish mumkin. Birgalikdagi mulk rejimi shartnomasida er-xotinning barcha mol-mulklariga uning ayrim turlariga yoxud er va xotindan har birining mulkiga nisbatan birgalikdagi umumli yoki aloxida egalik qilish tartibini o'zgartirishga xaqli ekanligi ko'rsatiladi. Agar shartnomada

har bir mulk egaligining ulushi belgilanmagan bo'lsa, ulardan har biri umumiy mol-mulkka nisbatan teng huquqli bo'lib, demak ulushlar xam teng bo'linishi kerak. Er-xotini umumiy mulkida har birining ulushi belgilangan bo'lishi mumkin.

Nikoh shartnomasi barcha fuqarolik kelishuvlariga muvofiq keladi. Er-xotin sog'lom bo'lishi zarur, bunda ularning ma'lum huquqiy natijaga erishuviga yo'naltirilgan xohish-istaklari inobatga olinishi talab etiladi. Nikoh shartnomasi er-xotin huquqi va salohiyatini, o'z huquqlarini himoya qilib, sudga murojat qilishlarini o'z farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini cheklamasligi, shuningdek, unda er-xotindan birini og'ir vaziyatga tushiradigan shartlar qo'yilmasligi lozim.

O'zbekiston respublikasida amal qiladigan ko'p sonli qonunchilik hujjatlari Konstitutsiyaning yuqorida keltirilgan qoidalarini bunday hujjatlar tartibga solib turadigan ijtimoiy munosabatlarga nisbatan aniqlashtiradi. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi mehnatga oid munosabatlarda imkoniyatlarning tengligi va diskriminatsiya qilishning taqiqlanishiga jiddiy e'tiborni qaratadi. Xususan ushbu kodeksning 6-moddasi birinchi qismiga binoan «barcha fuqarolar mehnat huquqlariga ega bo'lish va ulardan foydalanishda teng imkoniyatlarga egadir. Jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi mulkiy xolati va mansab mavqei, dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik qobiliyatlariga va uning mehnatining natijalariga aloqador bo'lmagan boshqa jihatga qarab mehnatga oid munosabatlar sohasida har qanday cheklashlarga yoki imtiyozlarga yo'l qo'yilmaydi va bular diskriminatsiya qilish deb xisoblanadi»

Mehnat kodeksining 6-moddasining uchinchi qismi mehnat sohasida o'zini kamsitilgan deb hisoblagan shaxsning diskriminatsiya qilishni bartaraf etish hamda o'ziga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni to'lash to'g'risidagi yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni to'lash to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishi mumkinligini nazarda tutadi.

Mehnat insonni o'zini, yaqinlarini bokishi uchun zamin yaratadi va o'z kobiliyatini xamda iste'dodini ruyobga chikarish imkoniyatini beradi. Har bir inson, garchi uning faoliyati jinoyat bilan bog'lik bo'lmay, jamiyat manfaatlariga xilof bo'lmagan xolda o'ziga yokkan ish bilan shug'illanishi mumkin.

Ayollar huquqlarini xalqaro himoya qilishga oid muhim sanalar:

1975-yil – Xalqaro Xotin-qizlar yili. (Mexiko, Meksika.)

1976-1985-yillar – BMT ayollarining o'n yilligi: «Tenglik, Taraqqiyot, Tinchlik».

1979 -yil – Ayollarga nisbatan turli shakllardagi kamsitishlarni tugatish to'g'risidagi Konvensiya.

1980-yil – 2-Butunjaxon Ayollar Konferensiyasi (Kopengagen, Daniya)

1985-yil – 3-Butunjaxon Ayollar Konferensiyasi (Nayrobi, Keniya)

1995-yil – Ayollar xolati buyicha 4-Butunjaxon Konferensiyasi

(Xitoy, Pekin) Pekin Deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi  
1995-2004-yillar BMT Bosh Assambleyasining 49sessiyasida «Inson huquqlarini ta'limining o'n yilligi».

Bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro va milliy mexanizmlar.

Bola huquqlari bo'yicha qo'mita. Bu Qo'mitaning birinchi sessiyasi 1991-yilda bo'lib o'tgan. Qo'mita o'n nafar ekspertdan iborat. Uning zimmasiga bola huquqlarini rag'batlantirish uchun kurashayotgan, Konvensiya qatnashchisi bo'lgan barcha davlatlar o'rtasida muntazam muloqot yo'lga qo'yilishini ta'minlash vazifasi topshirilgan

1. Qo'mita jahon bolalarining tinchligi va farovonligiga tahdid soluvchi omillarni aniqlab, muayyan muammolarning amaliy yechimini izlamogda, ularni hal qilish uchun odamlarni va moliya resurslarini safarbar etish choralarni ko'rmoqda hamda jamoatchilikning xabardorlik darajasini oshirishga, bola huquqlarini himoya etish va rag'batlantirishdagi ishtirokini kengaytirishga ko'maklashmoqda. Qo'mita ana shu maqsadda mazkur sohada jo'shqin faoliyat olib borayotgan boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

Qo'mita 1989-yil qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qo'shilgan davlatlar o'zlarining bu boradagi majburiyatlarini qay tarzda bajarayotganliklarini kuzatib boradi. Konvensiya qatnashchisi bo'lgan davlatlar Konvensiya bajarilishiga qaratilgan tadbirlar haqidagi va bola huquqlarini amalga oshirish sohasidagi taraqqiyot to'g'risidagi ma'ruzalarni muntazam ravishda shu Qo'mitaning o'ziga taqdim etadilar. Bu ma'ruzalarning milliy darajada oshkor etilishi va keng ommalashtirilishi ta'minlanadi.

BMTning Bolalar fondi (YuNISEF). Ikkinchi jahon urushidan keyingi Yevropada va Xitoyda bolalarning oziq-ovqat, dori-darmon va kiyim-kechakka bo'lgan kundalik zarur ehtiyojlarini to'laroq qondirish maqsadida 1946-yilda BMT Bosh Assambleyasining birinchi sessiyasida

YuNISEF ta'sis etilgan edi. 1950-yilda BMT Bosh Assambleyasi mazkur Fond faoliyatining asosiy yo'nalishi rivojlanayotgan mamlakatlar bolalarining manfaatlari ko'zlangan dasturni amalga oshirishdan iborat deya qaror qabul qildi. Uch yildan keyin BMT Bosh Assambleyasi YuNISEFning faoliyatini nomuayyan muddatga uzaytirishga qaror qilgan. YuNISEF insonparvarlik, muruvvat yordami ko'rsatgan holda rivojlanishga hamkorlik qilar ekan, bolalarni himoya etish va ularning barcha qobiliyatlarini o'stirish maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlar bilan hamkorlik doirasini kengaytirishga harakat qilib kelmoqda. Bunday hamkorlik bolalarni kamol toptirish sohasidagi milliy dasturlar doirasida amalga oshirilmoqda. Ana shu hamkorlik mohiyatan jahondagi har bir bolaga uning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada e'lon qilingan tayanch huquqlari hamda imtiyozlari imkon qadar ro'yobga chiqarilishini ta'minlashga qaratilgan. Markaziy va Sharqiy Yevropada, shuningdek sobiq Sovet Ittifoqi hududida bolalarning eng zarur

talab-ehhtiyojlarini qondirish maqsadida YuNISEF ba'zi davlatlarga yaqindan yordam ko'rsatib kelmoqda.

YuNISEF bola huquqlarini rag'batlantirish masalalari bilan shug'ullanuvchi Bola huquqlari qo'mitasi bilan jips hamkorlikni yo'lga qo'ygan bo'lib, ayni bir vaqtda Konvensiyaning amalga oshirilishini kuzatish hamda Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki bu hujjatga qo'shilgan davlatlarga ular zimmadagi vazifalarini bajarishlarida tomonidan yordam ko'rsatish bilan shug'ullanmoqda. YuNISEF o'z faoliyatida Bolalarning omon qolishini ta'minlash, ularni himoya etish va kamol toptirish to'g'risidagi umumjahon deklaratsiyasini amalga oshirishga qaratilgan harakatlar rejasiga amal qiladi. Mazkur deklaratsiya bolalarning manfaatlarini ko'zlab 1990-yilning sentabrida Nyu-Yorkda ko'pgina davlatlar va hukumatlarning rahbarlari hamda oliy martabali boshqa shaxslar ishtirokida o'tkazilgan oliy darajadagi umumjahon uchrashuvida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida Bola huquqlarini hurmat qilish va ularni huquqiy jihatdan kafolatlash to'g'risidagi masalalarning ilmiy, nazariy jihatdan asoslanishi. Bolalarni xar tomonlama sog'lom va yetuk o'sishi va tarbiyalanishi uchun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadbirlar.

#### **Bolalarni himoya qilishga qaratilgan nodavlat tashkilotlar.**

Hozirgi kunda O'zbekistonda bolalar uylari tarbiyalanuvchilari 3-yoshdan 17-yoshgacha bo'lgan bolalarni tashkil etadi. Bolalar uylari – yetim bolalar va ota-onalari vasiylikdan mahrum etilgan bolalar uchun davlat internat ta'lim muassasasidir.

**Qiynoqqa qarshi konvensiyaning umumiy tavsifi.** Barcha uchun qiynoq va shafqatsiz muomala voqelikni oydinlashtirish yengil bo'lmagan vazifa bo'lib, garchi uni qoralash va taqiqlash barcha davlatlarda xalqaro huquq normasi sifatida qabul qilingan. Ko'plab xalqaro huquqiy hujjatlar mazmuniga kiritilgan qiynoqning mutlaqo cheklanishi to'g'risidagi xalqaro qonunchilik shafqatsiz qiynoqlar qo'llanmasligining kafolati hisoblanmaydi. Qiynoqning huquqiy tavsifi 1984-yilda BMT tomonidan qabul qilingan. Qiynoqlarga qarshi konvensiyada taklif qilingan va barcha ishtirokchi davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan (Bosh Assambleyaning 1984-yil 10-dekabrda 39/46 rezolyusiyasi davlatlarning qo'shilishi, ratifikatsiya qilishi va imzolashlari uchun ochiq tarzda qabul qilindi hamda 1987-yil 26-iyunda kuchga kirdi). Ushbu Konvensiyaning 1-moddasida qiynoqqa quyidagicha ta'rif berilgan: «og'riq yoki qo'rqitish davlat mansabdor shaxsi yoki boshqa rasmiy faoliyat bilan bog'liq biror shaxs tomonidan, ular rejasi yordamida amalga oshiriladigan, ularning aybi va bunday harakatlarga jim turishlari bilan sodir etiladigan ma'lum bir shaxsga qasddan undan yoki uchinchi shaxsdan ma'lumot olish hamda uning sodir etgan harakati, uchinchi shaxs yoki u gumon sifatida ko'rilayotgan ishlarda tan oldirish maqsadida kuchli jismoniy yoki ruhiy ta'sir o'tkazish, qo'rqitish, shuningdek kamsitish sifatida tavsiflanuvchi, shaxsni yoki uchinchi bir shaxsni qo'rqitish hamda

majburlash bilan bog‘liq har qanday harakat. Bunday holatlarga qonuniy sanksiyalar natijasida ushbu sanksiyalar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan yoki favqulodda sodir bo‘luvchi og‘riq hamda qo‘rqitishlar kiritilmaydi».

BMTning Qiynoqlarga qarshi qo‘mitasi qiynoqning yana quyidagi elementlarini ko‘rsatib o‘tadi:

- jismoniy va ruhiy qiynash yo‘li orqali qasddan bo‘lgan xatti-harakat;
- muayyan maqsadda amalga oshirilgan harakat;
- davlatning mansabdor shaxsi yoki rasmiy faoliyat yurituvchi shaxsi tomonidan amalga oshirilgan harakat.

Qiynoqqa qarshi samarali kurashning asosiy jihatlarini uchta: **birinchidan**, samarali qonunchilik asosini yaratish va uni to‘liq amalga oshirishni ta‘minlash, shuningdek qiynoqqa qarshi kurashish kafolatlarini belgilab berish; **ikkinchidan**, qamoqda saqlanayotgan shaxsning joylashgan joyini ko‘zdan kechirish, u saqlanayotgan joyning mustaqil monitoringini amalga oshirish bo‘yicha nazorat mexanizmlarini, eng muhimi, milliy mexanizmlarni tashkil etish; **uchinchidan**, ichki ishlar organlari, JIEM xodimlari, advokatlar, sudyalar, tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislarning doimiy ravishda kasbiy malakasini oshirib borish.

Qiynoqqa qarshi konvensiyaning xalqaro huquqiy muhim ahamiyatga ega tavsifiga, eng avvalo, quyidagilar kiradi:

- ishtirokchi davlat qiynoqni jinoyat sifatida baholashi;
- qiynoqni oqlash uchun «istisno holatlar» va «yuqori turuvchi shaxsning buyrug‘i»ni bahona qilmaslik;
- qiynoq bilan bog‘liq jinoyatni sodir qilishda gumon qilinayotgan shaxs joylashgan ishtirokchi davlat uni jinoyat-protsessual javobgarlikka tortadi yoki uni topshirish bilan bog‘liq harakatlarni amalga oshiradi;
- biror ishtirokchi davlat hududida qiynoqni qo‘llash bilan bog‘liq harakatlar amalga oshirilayotganligi to‘g‘risida yetarli asoslar mavjud bo‘lgan holatlarda, xalqaro tergov harakatlarini amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi;
- ishtirokchi davlat o‘z hududida qiynoqqa qarshi kurash maqsadida qonunchilik, ma‘muriy, sud va boshqa choralarni ko‘radi;
- hech qaysi bir ishtirokchi davlat muayyan shaxsga nisbatan qiynoqni amalga oshirish bilan bog‘liq yetarli asoslar mavjud bo‘lgan holatda, uni boshqa davlatdan chiqarib yuborishi, jo‘natishi, qaytarishi yoki berishi mumkin emas;
- jinoyat-protsessual harakatlar bilan bog‘liq huquqiy yordam ko‘rsatish;
- ishtirokchi davlat huquqiy tizimini qiynoqqa solingan shaxsning manfaatlarini tiklash va munosib tovon undirish bilan bog‘liq adolatli huquqini ta‘minlash;

Qiynoqqa qarshi konvensiyaning mazmunini quyidagi asosiy tezislar yordamida izohlash mumkin:

1) qiynoq tushunchasi. Davlatning milliy qonunchiligida qiynoq jinoyat sifatida qaralishi lozim. Davlat o'zining qonunchilik, ma'muriy, sud va boshqalar yordamida qiynoqqa qarshi ogohlantirishning samarali choralari ko'rdi;

2) qiynoqni rasmiy qoralash. Davlatlarning barcha oliy hokimiyat organlari qiynoqqa qarshi o'zlarining salbiy munosabatlarini o'rnatishlari shart. Ular barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga qiynoqning qanday holatda sodir qilinganidan qat'i nazar, kechirib bo'lmasligi to'g'risidagi aniq tushunchani berishlari shart;

3) hibsda saqlashning cheklanishi. Qiynoqlar odatda hibsda saqlanayotgan shaxslarga nisbatan qo'llanilib, ularning insonlar bilan dildan suhbatlashish imkoniyatlari, ularga kim yordam bera olishi hamda unga nimalar bo'layotganligi to'g'risidagi xabar va yozishmalar huquqining cheklanishi. Davlat tergov jarayonida qiynoqning amalga oshirilmasligi yuzasidan barcha choralarni ko'rishi shart. Davlatlar jinoyat sodir etishda ayblanib qo'lga olingan barcha shaxslarning mustaqil sud organlariga topshirilishini ta'minlashlari zarur. Qamoqda saqlanayotgan shaxsning ahvolidan doim xabar olib turishlari uchun uning qarindoshlari, advokati va shifokorning doimiy va kechiktirmay kira olishlariga sharoit yaratishlari shart;

4) so'roq o'tkazish va qo'lga olish jarayonidagi kafolatlar. Davlat so'roq o'tkazish va qamoqda saqlash jarayonini doim nazorat qilib borishi shart. Qamoqda saqlanayotgan barcha shaxslar o'zlariga bo'layotgan munosabat yuzasidan shikoyat qilish huquqlari mavjudligi haqidagi axborotga ega bo'lishlari kerak. Ozodlikdan mahrum etish joylariga mustaqil inspeksiyaning tashriflari tashkil qilinish lozim. Qamoqqa olish va surishtiruvni amalga oshirish bilan bog'liq ma'muriy vakolatlarni ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'rishlari zarur;

5) qiynoqlar to'g'risidagi xabarlar haqida mustaqil tergov olib borish. Davlat qiynoq qo'llanilayotganligi haqidagi xabarni samarali va ob'ektiv tergov qilishni ta'minlab berishga majbur. Bunday tergov ochiq va oshkora usulda olib borilishi zarur. Da'vogar va guvohlar tazyiqdan himoya qilinishlari darkor;

6) qiynoqqa solish oqibatida olingan ma'lumotlardan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi. Davlat sud ishlarida, isbot va tan olish jarayonida qiynash oqibatida olingan har qanday ma'lumotdan foydalanishni taqiqlashi shart;

7) qiynoqni qonuniy yo'l bilan taqiqlash. Davlat qiynoqning jinoiy jazoga sazovor ekanligi yuzasidan barcha chora-tadbirlarni ko'rishi shart. Xalqaro huquqqa muvofiq qiynoqni qo'llashga taqiq hech bir sharoitda, hatto urush va boshqa favqulodda holatlarda ham to'xtab qolmasligi;

8) jinoyatchi sifatida taxmin qilingan shaxsni ta'qib qilish. Qiynoqni qo'llagan shaxslar javobgar hisoblanib jazolanishi shart. Ushbu prinsip

qidirilayotgan jinoyatchi joylashgan jinoyat sodir etilgan joydan, jinoyatchi hamda jabrdiydaning millatidan qat'i nazar, qo'llanilishi zarur;

9) o'qitish. Jinoyatchilarni qamoqqa olish, ularni so'roq qilish va qamoqdagi shaxslar bilan munosabatda bo'lish faoliyati bilan shug'ullanuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning barcha xodimlariga qiynoq jinoyatligi to'g'risida tushuntirishlar olib borish lozim. Shu bilan bir qatorda, yuqorida nomlari ko'rsatilgan xodimlar har qanday qiynoqni amalga oshirish bilan bog'liq buyruqlarni bajarmasliklari haqida ham ogohlantirilishi zarur;

10) zararining qoplanishi va rehabilitatsiya. Qiynoq oqibatida jabr ko'rgan shaxslar zararining moliyaviy yo'l bilan qoplanishi huquqiga ega bo'lishlari shart. Jabr ko'rgan shaxslar zarur tibbiy yordam va rehabilitatsiya bilan ta'minlanishlari lozim;

11) xalqaro hamkorlik. Davlatlar qiynoqni qo'llashda aybdorlarni ushlab yuzasidan barcha davlatlarning hukumatlari bilan aloqalar o'rnatish imkoniyatlaridan foydalanishlari shart. Qiynoqqa qarshi samarali va tezkor tergovni amalga oshirish bo'yicha davlatlararo mexanizmlardan foydalanishi va ularni ishlab chiqishi zarur. Davlatlar qurolli kuchlar, huquqni muhofaza qilish organlari va xavfsizlik xizmati xodimlarini tayyorlash yuzasidan tajriba almashishda qiynoqni qo'llamaslikni ta'minlashlari muhim;

12) xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish. Barcha davlatlar individual shikoyatlar bildirish jarayonini huquqiy tartibga soluvchi «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt» va unga fakultativ protokolni, shuningdek qiynoqdan huquqiy himoya qilish vositalari va kafolatlarini o'zida aks ettirgan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilishlari kerak;

13) qiynoqqa qarshi qo'mitaning faoliyati. BMT Qiynoqqa qarshi qo'mitasining tavsiyalari hamda Konvensiyaning asosiy shartlarini ijro etish bo'yicha davlatlarning milliy hisobotlarini ko'rib chiqishi lozim Qiynoqqa qarshi kurash amaliyoti dastavval 1948-yilda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» hamda Genotsid jinoyatlarining oldini olish hamda ularni jazolash to'g'risidagi konvensiyadan boshlangan. Ushbu hujjatlar 1966-yilda qabul qilingan «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt» hamda 1984-yildagi Qiynoqqa va boshqa shafqatsiz, noinsoniy va qadr-qimmatni tahqirlovchi muomala va jazo turlariga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya yordamida tasdiqlandi.

Konvensiyada har bir davlat o'z yurisdiksiyasidagi borasida har qanday hududda qiynoq bilan bog'liq holatlarning oldini olish bo'yicha samarali qonunchilik, ma'muriy va boshqa choralarni ko'rishi zarurligi belgilab qo'yilgan (2-moddaning 1-b.). Urush holati va tahdidi, ichki siyosiy tartibsizlik yoki har qanday favqulodda holatlar qiynoqni oqlash bilan bog'liq sabab sifatida baholanmaydi (2-moddaning 2-b.). Bundan tashqari, 1-paragrafning 3-moddasida: «Hech qanday ishtirokchi davlat shaxsni unga jo'natilayotgan davlatda qiynoqni qo'llash bilan bog'liq jiddiy asoslar

mavjud bo'lgan holatda boshqa davlatga jo'natishi, qaytarishi va berishi taqiqlanadi», deyilgan.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Inson huquqlariga oid asosiy tushunchalar va huquqiy asoslari.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari va erkinliklarini kafolati.
3. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklari.
4. Inson huquq va erkinliklarini ximoya qiluvchi xalqaro va milliy institutlar.
5. Fuqarolarning huquq va erkinliklarining sud tomonidan himoyalaniishi.
6. Inson huquqlarini himoya etish bo'yicha milliy institutlar tizimi, tushunchasi, maqsad va vazifalari.
7. Ayollar va Bola huquqlariga oid xalqaro hujjatlar, va milliy institutlar.

### **3-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish.**

#### **Reja:**

1. Konstitutsiya tushunchasi va uning turlari
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinish tarixi va asosiy tamoyillari.
3. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarining Konstitutsiyada aks ettirilishi.
4. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar.

**Adolat-oxiratda najot,  
Dunyoda-saodat boshidir.**

**Ali ibn Abu Tolib.**

**Tayanch so'zlar:** Ma'naviy-ma'rifiy, shaxsning ma'naviy kamoloti, milliy tarbiya, ma'naviy-axloqiy muhit, ijtimoiy-ma'naviy muhit, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi, tarbiyaviy fikrlar.

#### **1.1 Konstitutsiya tushunchasi va uning turlari.**

**Konstitutsiya** (lotincha: *constitutio* — „tuzilish“, „tuzuk“) — bu davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi.

Konstitutsiya davlatchilik belgisidir. Bir-biridan farqlanuvchi yuridik va haqiqiy (faktik) konstitutsiya tushunchalari bor. Yuridik konstitutsiya ijtimoiy



munosabatlar doirasini tartibga soluvchi ma'lum huquqiy normalar tizimi. Haqiqiy konstitutsiya esa — shunday munosabatlarning o'zi, ya'ni real mavjud munosabatlardir. Konstitutsiya o'z shakliga ko'ra, kodekslashtirilgan, kodekslashtirilmagan va aralash turlarga bo'linadi. Kodekslashtirilgan konstitutsiya — konstitutsiyaviy xususiyatga ega barcha asosiy masalalarni tartibga soluvchi bir butun yozma hujjat hisoblanadi. Agar ayni o'sha masalalar bir necha yozilgan hujjatlar bilan tartibga solinsa, u holda konstitutsiya kodekslashtirilmagan hisoblanadi. Aralash turdagi konstitutsiya parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar va sud precedentlari bilan birga, odatlar va nazariy sharxlarni ham o'z ichiga oladi, ya'ni qisman yozilgan bo'ladi. O'zgartirish kiritish usuli bo'yicha konstitutsiya yumshoq va qattiq turlarga bo'linadi. Ularning birinchisi oddiy qonun qabul qilish yo'li bilan o'zgartirilishi mumkin. Ikkinchisi maxsus takomillashtirilgan tartibda (parlament a'zolari ovozining malakali ko'pchiligi, ba'zan esa referendum o'tkazish, tuzatishlarni muayyan miqdordagi federatsiya sub'yektlari tomonidan ratifikatsiyalash va shahrik.) o'zgartirilishi mumkin. Amal qilish muddatlari bo'yicha konstitutsiyalar doimiy va muvaqqat turlarga bo'linadi.

Davlat faoliyatining turli sohalarida konstitutsiyaga rioya qilinishini nazorat etish Oliy sud yoki Konstitutsiyaviy sud zimmasiga yuklanadi. „konstitutsiya“ atamasi Qadimgi Rimdayoq bor edi (imperator konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temur „Tuzuklar“i Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo'lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda O'rta Osiyo xalqlari taqdiriga kuchli ta'sir o'tkazgan. Yevropadagi tarixiy taraqqiyot hozirgi kunda amalda bo'lgan konstitutsiyalarning 2 guruhini vujudga keltirdi. 1-guruh — hozirgi zamon sharoitlaridan keskin farq qiluvchi sharoitlarda qabul qilingan eski konstitutsiyalar. Bu xildagi konstitutsiyalarga 1787-yilgi AQSH Konstitutsiyasi, 1831-yilgi Belgiya konstitutsiyasi, 1874-yilgi Shveysariya konstitutsiyasi misol bo'la oladi. 2-guruhga XX asrning 2-yarmida qabul qilingan „yangi avlod“ konstitutsiyalari kiradi. Ular dastlabki konstitutsiyalardan huquq va erkinliklar institutining, konstitutsiyaning himoya qilish mexanizmlari va ijtimoiy muammolarga murojaat kilish mexanizmlarining kengayishi natijasida konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining ko'payishi bilan farq qiladi.

Xalqaro konstitutsiyaviy tajribalarni o'rganish, xalqaro hujjat qoidalarini inobatga olish, milliy davlatchilik an'analardan kelib chiqish natijasida yaratilgan **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi** (1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan) jahon andozalariga mos bo'lib, xalqaro talablarga javob beradi.

**Konstitutsiya tushunchasi, mohiyati va belgilari.** Konstitutsiya — bu prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy normalarni o'zida mujassam etgan va davlat hokimiyatini amalga oshirish me'yorini belgilovchi davlatning asosiy qonuni bo'lib, unda davlatning qurilishi, huquqiy tizimi hamda eng asosiysi davlat bilan aholi o'rtasidagi munosabatlar aks etgan yuridik hujjatdir.

Konstitutsiyaga tushuncha berishda ko'pchilik konstitutsionalistlar uning mohiyatidan kelib chiqadi. Konstitutsiya mohiyatiga turlicha yondashuvlar mavjud:

**Birinchidan**, Konstitutsiyalar shunday jamiyatda qabul qilinadiki, bunda bu jamiyatlar ijtimoiy tuzumida inqilobiy o'zgarishlar ro'y berib, davlat hokimiyatiga egalik qiladigan bir ijtimoiy guruh vakillari o'rnini boshqa ijtimoiy guruh egallab olganda Konstitutsiya siyosiy muvozanatni, kuchlar nisbatini saqlab turadi (Masalan, qirol hokimiyati cheklanib, parlamentning mavqei oshganda).

**Ikkinchidan**, ko'pincha Konstitutsiyalarda, ular qabul qilingan paytdagi davlat hokimiyatiga ta'siri katta bo'lgan siyosiy kuchlarning manfaatlari ko'proq aks etgan bo'ladi (Masalan, Fransiyaning 1946-yilgi Konstitutsiyasida fashizm ustidan qozonilgan g'alaba, siyosiy maydonda millatchilik kayfiyatiga qarshi kuchlar, harakatlarning ta'sirini oshgani o'z ifodasini topgan).

**Uchinchidan**, Konstitutsiyalar real hayotda davlat hokimiyatiga xalq egalik qiladigan jamiyatlardagina qabul qilinadi. Bunday jamiyatlar ko'pincha demokratik jamiyat sifatida e'tirof etiladi.

**To'rtinchidan**, Konstitutsiya davlatning o'z hokimiyatini amalga oshirishda ma'lum bir chegarasini belgilaydigan, davlat va uning fuqarolari o'rtasidagi munosabatdan kelib chiqadigan shartlashilgan hujjatdir. Davlat fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirishni kafili bo'lsa, fuqarolar o'z navbatida davlat oldidagi burchlarini bajarishlari shart.

Aksariyat xorijiy mamlakatlarda ushbu bosh manba "Konstitutsiya" deb atalsa, ayrim davlatlarda Konstitutsiyalar o'ziga xos nomlarga ega. Masalan, Germaniyada "Asosiy qonun", Kolumbiyada "Siyosiy konstitutsiya", Monakoda "Konstitutsion ordanans" deb nomlanadi.

Zamonaviy Konstitutsiyalarning mohiyati umuminsoniy, huquqiy qadriyatlarni va umumdemokratik asoslarni mustahkamlashda ifodalanadi. Ular har bir inson teng huquqli fuqaro bo'lib faoliyat yurita oladigan davlatda yashashini targ'ib qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan konstitutsiya o'z mohiyatiga ko'ra, demokratik huquqiy davlat qurish konstitutsiyasi sifatida O'zbekiston xalqi irodasining ifodasidir va bu iroda umumdemokratik prinsiplarni o'zida mujassam etuvchi, insonni, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat deb e'tirof etuvchi davlat va jamiyat hayoti asoslarini mustahkamlashga yo'naltirilgandir.

Dunyo-konstitutsionalizmi o'zining-rivojlanishi obaynida tarixdagi ko'plab ijtimoiy-siyosiy voqeliklar ta'siri ostida bo'lib keldi. Shuning uchun turli davrlarda ko'plab mamlakatlar tomonidan qabul qilingan Konstitutsiyalar, ularda mustahkamlangan normalar va tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar ko'lamiga qarab, shuningdek Konstitutsiyalar qabul qilingan davr talablaridan kelib chiqib, ularni mazmunan har xil rivojlanish bosqichlariga bo'lish mumkin. Albatta bunda Konstitutsiyalar yillar sayin mazmunan boyib, mukammallashib borgan. Hozirda aksariyat adabiyotlarda Konstitutsiyalarning rivojlanish bosqichlari to'rtga bo'lib o'rganiladi.

**Birinchi bosqich** XVIII asr oxiridan XX asr boshlarigacha davom etib, bu konstitutsiyalarga AQSH Konstitutsiyasidan tashqari, Polsha va Fransiyaning 1791-yilda, Norvegiyaning 1814-yilda, Belgiyaning 1831-yilda, Lyuksemburgning 1868-yilda, Shveysariyaning 1974-yilda qabul qilingan Konstitutsiyalari misol bo'ladi. Bu bosqichda qabul qilingan Konstitutsiyalar faqat davlat hokimiyatini amalga oshirish, davlat organlari faoliyatini va o'zaro munosabatlarini tartibga solish bilan cheklanib qoldi. Fuqarolarning huquq va erkinliklariga kam e'tibor berilib, faqat ayrim tabiiy huquqlari e'tirof etildi. Bu albatta bir tomondan o'sha davr uchun katta yutuq ham edi.

**Ikkinchi bosqich** Konstitutsiyalariga ikkita jahon urushi oralig'ida qabul qilingan sobiq Ittifoq Konstitutsiyalari, sharq mamlakatlaridan Turkiya, Eron, Misr kabi davlatlarda an'anviy musulmon huquqiga asoslangan Konstitutsiyalar qabul qilindi. Bu davrga kelib fuqarolarning sotsial huquq va erkinliklari konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Shuningdek, Konstitutsiyalarda bu davrga kelib ancha murakkablashgan davlat boshqaruvi, ijro hokimiyatining kuchayib ketishi kabi unsurlar ham o'z aksini topdi.

**Uchinchi bosqich** ikkinchi jahon urushidan o'tgan asrning 1980-yillariga qadar davom etib, bu davr chinakam konstitutsionalizm davri bo'ldi. Chunki aynan shu yillarda dunyo xaritasida juda ko'plab davlatlar paydo bo'lib, bir necha o'nlab Konstitutsiyalarni qabul qilinishiga olib keldi. Shuningdek, jahon taraqqiyoti yangi bosqichga qadam qo'yganligi bois ayrim davlatlarda konstitutsiyalar qayta qabul qilindi (masalan, Germaniya, Yaponiya, Italiya va Fransiya). Bu bosqich Konstitutsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari: ilk bora siyosiy partiyalar faoliyati Konstitutsiyalarda keng qamrovli tarzda mustahkamlandi, iqtisodiyotning konstitutsiyaviy asoslari va boshqa ko'plab yangi-yangi huquqiy institutlar vujudga keldi. Inson huquqlariga birinchi o'ringa ko'tarildi.

**To'rtinchi bosqich** hozirgi zamon Konstitutsiyalari bo'lib, unda asosan barcha narsa inson uchun degan g'oyaga tayanadi hamda inson omili hamma narsadan ustunligi e'tirof etiladi. Shuningdek, globallashib borayotgan ekologik muommolar ham konstitutsiyaviy darajada o'z yechimini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham aynan shu davr Konstitutsiyalari turkumiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi ham o'zining konstitutsiyaviy rivojlanish tarixiga ega va bu davrlarni shartli ravishda uchga bo'lib o'rganishimiz mumkin.

1. **O'zbekiston tarixida ilk Konstitutsiya 1918-yilda qabul qilingan Turkiston ASSRning Konstitutsiyasi** hisoblanadi. Ushbu Konstitutsiya birinchi davr Konstitutsiyalariga misol bo'lib, ular qatoriga BXR (Buxoro Xalq Sovet Respublikasi) hamda XXSR (Xorazm Xalq Sovet Respublikasi)ning Konstitutsiyalari ham kiradi.

2. **1924-yilda o'tkazilgan milliy chegaralanishdan so'ng vujudga kelgan O'zbekiston SSR Konstitutsiyalari (1927, 1937, 1978).**

3. **Bosh qomusimiz bo'lmish mustaqil O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasi.**

Konstitutsiya eng muhim hujjat sifatida quyidagi yuridik belgilarga ega:

Konstitutsiya-davlatning asosiy qonunidir. Har bir demokratik davlatda Konstitutsiya muqaddas sanalib unga soʻzsiz amal qilish lozim. Jamiyatda qonun ustuvorligini taʼminlash, Konstitutsiyaning asosiy qonun sifatida mavqeini saqlab qolish bilan barobar.

Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega. Har qanday davlatni olib qaramaylik u oʻzining milliy qonunchilik tizimiga ega boʻladi. Qonunchilik tizimi esa biror bir huquqiy asosga tayanishi muqarrar va bu asos rolini Konstitutsiya bajaradi. Har bir qonun va qonun osti normativ hujjatlar albatta Konstitutsiyaga asoslanishi shart.

Konstitutsiya tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarni muhimligi va tartibga solib turuvchi normalarini birlamchi ravishda tan olinishi boshqa normativ hujjatlarni konstitutsiyalarga mosligini tekshirish uchun alohida huquqiy himoya mexanizmini ham talab qiladi.

- Konstitutsiya oʻzining alohida obyektiga ega boʻladi. Jamiyatda shunday munosabatlar mavjudki ularni faqat Konstitutsiya darajasida tartibga solish kerak. Masalan, davlat hokimiyatini amalga oshirish prinsiplari, davlatning boshqaruv va tuzilish shaklini belgilash, oliy davlat organlarining maqomini mustahkamlash kabi masalalar.

Konstitutsiya -alohida tartibda qabul qilinadi va oʻzgartiriladi. Konstitutsiyalarni qabul qilish va unga oʻzgartirishlar kiritish oddiy qonunlarni qabul qilish va oʻzgartirishdan farq qilib, parlament tomonidan malakali koʻpchilik ovoz asosida yoki referendum orqali hal qilinadi. Masalan, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga oʻzgartirishlar tegishincha Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati aʼzolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat koʻpchiligi tomonidan qabul qilingan qonun yoki Oʻzbekiston Respublikasining referendumini bilan kiritiladi.

- Konstitutsiya-muhim siyosiy hujjatdir. Chunki, davlat siyosiy tizimining asosini tashkil etadi. Ushbu tizim mamlakatning olib borayotgan siyosiy maydondagi faoliyati orqali jamiyatda inson huquqlari va erkinliklarining buzilishidan himoya etish uchun xizmat qiladi. Shuningdek unda boshqa siyosiy yoʻnalishlar ham aks etishi mumkin.

- Konstitutsiya barcha huquq tarmoqlarining asosini tashkil etadi. Konstitutsiya milliy qonunchilikda mavjud barcha huquq tarmoqlari uchun fundamental ahamiyat kasb etadi.

### **Konstitutsiyaning mohiyati**

Konstitutsiya tushunchasini ochib berishda uning mohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Turli mamlakatlardan turli huquqiy oqimlar vakillari Konstitutsiya mohiyatini turlicha taʼriflaydilar. Masalan, tabiiy huquq maktabi vakillari Konstitutsiya –xalq (millat) ning umumiy irodasini ifodalovchi oʻziga xos ijtimoiy shartnomadir deydilar. Normativ huquq nazariyasi vakillari esa Konstitutsiya bu oliy huquqiy normaning ifoda boʻlishidir deb tushunadilar. Marksizm-leninizm Konstitutsiyani sinfiy kurashning mahsuli sifatida baholaydi. Bizning fikrimizcha, Konstitutsiya – umuminsoniy huquqiy qadriyatlarni eng umulashgan inʼikosidir.

## **Konstitutsiyaning funksiyalari**

1. Konstitutsiya ijtimoiy hayotning barcha sohalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sohalariga qarab Konstitutsiyaning quyidagi turli funksiyalarini ko'rsatish mumkin.

2. **Yuridik funksiyalari** - huquqning asosiy manbai.

3. **Siyosiy funksiyalari** davlat hokimiyatining tashkil etilishining asoslarini o'rnatadi.

4. **Mafkuraviy funksiyalari** jinoyatning eng asosiy ma'naviy-g'oyaviy qadriyatlarini mustahkamlaydi.

## **KONSTITUTSIYA TURLARI.**

Konstitutsiyalarni turkumlarga (turlarga) bo'lish (klassifikatsiyalash)

Turli mamlakatlardagi konstitutsiyalarni turli mezonlarga (kriteriyalarga) asoslanib, har xil guruhlariga (turlarga) bo'lish mumkin.

**Birinchidan**, konstitutsiyalarni ularning mohiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

**Yuridik Konstitutsiya (formal)** - davlatning Asosiy Qonuni.

**Ijtimoiy (sotsial) Konstitutsiya (amaliy)** - amaldagi real ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi.

**Tirik Konstitutsiya** - AQSH Oliy Sudi bu Konstitutsiyani o'zgarayotgan ijtimoiy mezonlariga moslab kelmoqda.

**Fiktiv (soxta) Konstitutsiya** - SSSRning 1936 yil Konstitutsiyasi.

**Moddiy Konstitutsiya** - konstitutsiyaviy tuzum va inson huquqlarini tartibga soluvchi qonundir.

**Formal Konstitutsiya** - Asosiy Qonun bo'lib, alohida tartibda qabul qilinadi va oliy yuridik kuchga ega.

**Ikkinchidan**, konstitutsiyalarni shakliga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

**Yozma konstitutsiyalar.**

**Og'zaki (yozilmagan) konstitutsiyalar** - Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Butan kabi davlatlar Konstitutsiyalari.

**Yaxlit konstitutsiyalar** - Konstitutsiya matni yaxlit bo'lib, bir vaqtda qabul qilinadi. Masalan, O'zbekiston, Rossiya, Braziliya Konstitutsiyalari yaxlit Konstitutsiyalarga misol bo'la oladi.

**Yaxlit bo'lmagan (noyaxlit) konstitutsiyalar** - bunday Konstitutsiyalar turli vaqtda qabul qilingan qonunlardan iborat bo'ladi. Masalan, Shvetsiya, Finlandiya, Isroil konstitutsiyalari.

**Yumshoq konstitutsiyalar** - bunday Konstitutsiyalar oddiy qonunlar kabi o'zgartiriladi. Masalan, Buyuk Britaniya Konstitutsiyasiga 350 ga yaqin qonunlar kiradi va oddiy tartibda o'zgartiriladi.

**Qattiq konstitutsiyalar** - alohida murakkab tartibda o'zgartiriladi. Masalan, AQSH, Rossiya, O'zbekiston konstitutsiyalari.

**Doimiy konstitutsiyalar.** Aksariyat konstitutsiyalar doimiydir.

**Vaqtinchalik (muvaqqat) konstitutsiyalar** - Iroqda 1970-yil Birlashgan Arab Amirligida 1971-yildan beri harakatda bo'lgan konstitutsiyalar.

**Uchinchi**dan, konstitutsiyalarni ularni ijtimoiy mazmuniga qarab ham bir necha turga bo'lish mumkin. Hozirgi kunda dunyoda 300 dan ortiq Konstitutsiya bor (federativ davlatlar subyektlarining Konstitutsiyalari bilan birga). Bu Konstitutsiyalar turli tarixiy davrda qabul qilingan bo'lib, har xil ijtimoiy mazmunga ega.

**G'arb mamlakatlari Konstitutsiyalari.**

**Rivojlanayotgan mamlakatlar Konstitutsiyalari.**

**O'tish davri mamlakatlari Konstitutsiyalari.**

**Teokratik davlatlar Konstitutsiyalari.**

**Konstitutsiyalarni quyidagi turlarga ham bo'lish mumkin:**

**Demokratik Konstitutsiyalar.**

**Avtoritar Konstitutsiyalar.**

**Totalitar Konstitutsiyalar.**

**Konstitutsiyalarni turli guruhlariga bo'lish tabiiydir.** Har qanday klassifikatsiya konstitutsiyalarni u yoki bu jixatini yaqqolroq, ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

**Formal va moddiy Konstitutsiya. Yuridik va amaliy Konstitutsiya**

Konstitutsiyaviy huquq fanida Konstitutsiya tushunchasi ikki xil ma'noga ega deb qaraladi. Shu ma'noda formal va moddiy Konstitutsiya farqlanadi.

Hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquq fanida formal Konstitutsiya deganda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan, qabul qilinishi va o'zgartirilishi alohida tartibda amalga oshiriladigan qonun tushuniladi. Moddiy ma'nodagi Konstitutsiya deganda esa davlat hokimiyatini tashkil etishni tartibga soluvchi normalar yig'indisi tushuniladi. Bunday asosiy narsa tartibga solish predmeti va ijtimoiy munosabatlarni mazmunidir.

Fransuz olimi F.Ardan: "Konstitutsiya - davlat hokimiyatining sinonimidir. Shuning uchun hatto yozma hujjat bo'lmaganda ham davlat o'z Konstitutsiyasiga o'zida aks ettirmaydi", -deb yozgan edi.

Zamonaviy konstitutsiyaviy huquq fanida moddiy yoki amaliy Konstitutsiya deganda davlat hokimiyatini hayotdagi amalga oshirilishi tushiniladi.

**Konstitutsiya yuridik xususiyati-**

Asosiy Qonun sifatidagi uning quyidagi belgilarini tashkil etadi.

1. Konstitutsiya eng muhim yuridik hujjat, oliy normativ - huquqiy akt sifatida quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi. Bu oily majlis tamonidan qabul qilingan va hamma uchun umummajburiy kuchga ega bo'lgan normative huquqiy akt bo'lib, jamiyat qurilishi xalq hokimiyati bilan bog'liq bo'lgan hamma ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.
2. Konstitutsiya davlatning Asosiy Qonunidir.
3. Konstitutsiya - oliy yuridik kuchga ega.
4. Konstitutsiya alohida tartibda qabul qilinadi va o'zgartiriladi.
5. Konstitutsiya muhim siyosiy hujjatdir.
6. Konstitutsiya muhim mafkuraviy hujjatdir.

7. Konstitutsiya muhim yuridik hujjatdir.
8. Konstitutsiya milliy huquqiy tizimning o'zagini tashkil etadi.
9. Konstitutsiya - huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyatning asosi.

### **Konstitutsiyaning yuridik mazmuni**

Konstitutsiyalarning yuridik mazmuni uning tarkibini tashkil etuvchi normalarda ifodalanib, ushbu konstitutsiyaviy normalar shaxs, jamiyat va davlat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yuridik mazmunini quyidagi konstitutsiyaviy normalar tashkil etadi:

- a) qonun chiqaruvchi;
- b) ijroiya;
- s) sud organlari faoliyatini konstitutsiyaviy asoslarini yaratuvchi;

Fuqarolik jamiyati asoslarini tashkil etuvchi;

Tashqi siyosat asoslarini tashkil qiluvchi;

Moliya, mudofaa, xavfsizlik masalalarini tashkil etuvchi;

Inson huquqlari va erkinliklarini tartibga soluvchi normalar;

Bugungi kunga kelib Konstitutsiyalarning konstitutsiyaviy tartibga solish predmeti doirasining kengayib borishi esa hozirgi zamon Konstitutsiyalariga xos alohida xususiyat sifatida e'tirof etiladi.

### **Konstitusiyamizning yaratilishi tarixi**

#### **Yangi konstitutsiya. 10 ta asosiy o'zgarish**

*O'zbekistonning 65 foizga yangilangan va ancha "to'lishgan" bosh qomusi 1 maydan e'tiboran kuchga kirdi. Kun.uz o'zgarishlarning eng muhimlarini sanab o'tadi.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri **2023-yil 1-maydan** e'tiboran kuchga kirdi. Bunga 30 aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo'ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan.

**Bunga qadar 1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartish kiritilgan edi.** Bu safar esa o'zgarishlar ko'lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni **128 tadan 155 taga**, undagi normalar esa **275 tadan 434 taga** oshdi. Umuman, rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

#### **1. O'zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat**

Konstitutsiyaning 1-moddasidagi "*O'zbekiston – suveren demokratik respublika*" jumlasini quyidagicha o'zgartirilmogda:

- *O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.*

**Boshqaruvning respublika shakli** – davlat hokimiyatining oliy organlari xalq tomonidan muayyan muddatga saylanishini anglatadi. (*Konstitutsiya normalariga rasmiy sharhlar hozircha yo'q, shu sababli undagi norma va*

*tushunchalarga tahririyat umumqabul qilingan doirada, mustaqil izoh berib o'tmoqda).*

**Suveren davlat** – o'z hududida to'la-to'kis mustaqil hukmronlik va mutlaq yurisdiksiyaga ega bo'lish demakdir.

**Demokratiya** esa xalq hokimiyatini ifoda etib, davlat boshqaruvida saylanish va o'z vakillarini saylash orqali barchaning teng huquqli ishtiroki ta'minlanishini ko'zda tutadi.

**Huquqiy davlatda** barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko'z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo'ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo'ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta'minlaydi.

O'zbekiston o'zini **ijtimoiy davlat** deb e'lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo'l qo'ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta'lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo'llovga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag'al oilaning bolalarida ham sog'-salomat o'sib-ulg'ayib, yaxshi ta'lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo'lishi kerak.

**Dunyoviy davlatda** davlat va din bir-biridan ajratilgan bo'ladi. Davlat diniy e'tiqodidan qat'i nazar barchaga bir xil munosabatda bo'ladi, dinga oid masalalarda neytral pozitsiyani egallaydi.

Yangi konstitutsiyaning 154-moddasi bilan, **1-moddadagi qoidalarni qayta ko'rib chiqish mumkin emas**, deb belgilandi. Xuddi shuningdek, 154-moddaning o'zidagi aynan shu qoidadan iborat band ham qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas.

Boshqacha aytganda, bu norma – O'zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, monarxiyaga yoki islomiy respublikaga aylanmasligini nazarda tutadi.

## **2. Konstitutsiya to'g'ridan to'g'ri amal qiladi**

15-moddaga quyidagicha qo'shimcha qo'shildi:

- *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.*

Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat qonunlar, balki bevosita konstitutsiyadagi normalarga ham asoslangan holda ish olib borishga, xususan sudga murojaat qilishga imkon beradi.

Referendumda qabul qilingan qonunga binoan, Oliy sud 3 oy ichida tegishli Plenum qarorini qabul qilishi kerak. Bu qaror asosida sudlar tomonidan konstitutsiya normalarini to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi hujjat sifatida qo'llash yuzasidan yagona sud amaliyoti joriy etiladi.

## **3. Imtiyozlar qonunda yozib qo'yilishi shart emas**



Yangi konstitutsiyaning 19-moddasi (avvalgi 18-modda) – fuqarolarning jinsi, millati, mavqeyi va hokazolardan qat’i nazar qonun oldida tengligi haqida. Bu moddaning 2-qismi quyidagicha o‘zgarimoqda:

- **Əski:** *Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.*
- **Yangi:** *Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.*

Bu bilan konstitutsiyaning amalda ishlamay kelgan normalaridan biri real voqelikka moslashtirilmoqda. Amaliyot shundayki, turli jabhalardagi imtiyoz va preferensiyalar nafaqat qonunlar asosida, balki ko‘p holatlarda qonunosti hujjatlar – qaror va farmonlar asosida berib kelinyapti.

#### **4. Barcha noaniqliklar – inson foydasiga**

Konstitutsiyaning yangi tahririga asosan:

- *Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.* Ijtimoiy munosabatlar cheksiz shakllarga ega, ularni normativ-huquqiy hujjatlarda to‘liq kodifikatsiya qilib chiqish amalda imkonsiz.

Əndilikda, qonunchilikda aniq belgilab qo‘yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlat emas, inson foydasiga hal etiladi.

Bundan tashqari, turli hujjatlarni yuritishda davlat organlari tomonidan xato-kamchilik o‘tgan taqdirda, masalan pensiya tayinlashda tegishli hujjatlar bazadan topilmay, noaniqlik yuzaga kelganida ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi kerak.

#### **5. Inson huquqlari ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash maqsadida cheklanishi mumkin**

Huquq va erkinliklarning cheklanishi masalasi **avvalgi konstitutsiyada** quyidagi ikkita norma bilan tartibga solingan edi:

- *Insonning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas.*

*Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.*

Konstitutsiyaning yangi tahririda yuqoridagi ikkita norma deyarli o‘zgarishsiz saqlab qolindi. Shu bilan birga, quyidagicha yangi norma qo‘shildi:

- *Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta‘minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin.*

Huquqlar cheklanishiga doir bu me‘yorlar, yangi konstitutsiyaning boshqa bir moddasiga asosan, so‘z erkinligi huquqiga ham tegishli. Ya‘ni axborot izlash, olish va tarqatish huquqi faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholi sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, jamoat

xavfsizligi va tartibini ta'minlash, davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirning oshkor etilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida cheklanishi mumkin. Ta'kidlash lozim, "ijtimoiy axloq" tushunchasi O'zbekiston qonunchiligiga hali kiritilmagan. Ushbu tushuncha hamda mazkur modda bo'yicha inson huquqlari "jamoat tartibini ta'minlash maqsadida" cheklanishi bo'yicha vakolatli organning huquqiy sharhiga zarurat bor. Huquqlar ta'minlanishi bilan ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash o'rtasidagi oltin o'rtalik aniq belgilab qo'yilishi kerak. Shu bilan birga, yuqorida aytganimizdek, konstitutsiyaga binoan endilikda barcha noaniqliklar inson foydasiga hal etiladi.

Shu o'rinda, namoyishlarga oid moddani ham eslatib o'tish o'rinli. Bu modda avvalgi holida, o'zgarishsiz saqlab qolindi:

- *Fuqarolar o'z ijtimoiy faolliklarini O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o'tkazilishini to'xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.*

#### **6. O'qituvchilar alohida e'tirofda**

Konstitutsiyaga o'qituvchilar haqida modda qo'shildi. U ikki banddan iborat:

- *O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi.*
- *Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.*

Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi vakili bo'lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi. Konstitutsiyada nomi keltirilgan o'qituvchilardan boshqa kasb egalarining barchasi – huquq sohasi vakillari (sudyalar, prokurorlar va advokatlar). Boshqa holatlarda kasb egalari emas, sohalar haqida gap ketgan (masalan, ommaviy axborot vositalari, turli jamoat birlashmalari).

#### **7. Yer xususiy mulk bo'lishi mumkin**

O'zbekistonda 2022-yildan e'tiboran qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish boshlangan. Shu bilan deyarli bir vaqtda, o'tgan yili e'lon qilingan yangi konstitutsiya loyihasining birlamchi versiyasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni xususiylashtirish mumkin emasligiga ishora qilingan edi. Yakuniy talqindan bunday cheklov olib tashlandi va yerni xususiylashtirishga oid norma quyidagicha shaklga keltirildi:

- *Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boyluk sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin.*

Bosh qomusning o'tgan yili e'lon qilingan birinchi loyihasida unga quyidagicha jumlani kiritish taklif etilgan edi: "Iqtisodiy faoliyatda insofsiz raqobatga, monopollashtirishga yo'l qo'yilmaydi". Yakunda bu boradagi normalar quyidagicha ko'rinish oldi:

- *Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi.*
- *Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi.*  
Hujjatning birlamchi loyihasida mavjud bo'lgan: *“Xususiy lashtirish natijalari qayta ko'rib chiqilmaydi hamda bekor qilinmaydi”* degan normani konstitutsiyaga kiritmaslikka qaror qilindi. Eslatib o'tamiz, amaldagi qonunchilikda ham bunaqa qoida yo'q.

### **8. OAV faoliyatiga to'sqinlik qilish javobgarlikka sabab bo'ladi**

Avvalgi konstitutsiyaning *“Ommaviy axborot vositalari”* nomli bobi bitta moddadan iborat edi. Unda shunday deyilgandi: *“Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Tsenzuraga yo'l qo'yilmaydi”*.

Yangi konstitutsiyaga ko'ra, bu bob ikkita moddadan iborat bo'ldi:

- *Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir.*
- *Senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.*

Asosiy yangilik – OAV faoliyatiga to'sqinlik uchun javobgarlik konstitutsiya darajasida belgilandi. MJtK va Jinoyat kodekslariga tegishli javobgarlik kiritilishi haqida 4-5 yildan beri gapirib kelinadi, lekin ularning barchasi og'izda va qog'ozda qolib ketmoqda.

Endilikda, referendumda qabul qilingan qonunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi qonunchilikni yangi konstitutsiyaga moslashtirish dasturini 2 oy muddat ichida ishlab chiqib, parlamentga kiritishi kerak.

### **9. Davlat boshqaruvidagi o'zgarishlar. Prezidentning vakolat muddati 7 yil bo'ldi**

O'zbekistonning yangi tahrirdagi konstitutsiyasiga binoan:

- **Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi.** Prezidentning *“davlat boshlig'i”* maqomi, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq prezident bo'lishi mumkin emasligi, prezidentning qasamyodi matni va prezidentga taalluqli boshqa aksariyat normalar o'zgarishsiz qoldirildi. Ma'lumot uchun, prezidentning vakolat muddati 2003-yilda ham 5-yildan 7-yilga uzaytirilgan, 2011-yilda esa qaytib 7 yildan 5 yilga tushirilgan edi.

**Bosh vazir nomzodini endi prezident taqdim etadi.** Prezident bosh vazir nomzodini taqdim etishdan oldin parlamentga kirgan barcha partiyalarning fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o'tkazishi belgilandi. Qonunchilik palatasi prezident taqdim etgan nomzodni ko'rib chiqadi, agar deputatlarning yarmidan ko'pi ma'qullasa, bosh vazir lavozimiga tasdiqlanadi. Agar deputatlar nomzodni uch marta rad etsa, prezident bosh vazirni tayinlab, Qonunchilik palatasini tarqatib yuborishga haqli. Avvalgi tartibga ko'ra, bosh vazir nomzodini Qonunchilik

palatasida eng ko'p o'rinni egallagan partiya taklif qilar, prezident ma'qullagach, nomzod ikki palata tomonidan tasdiqlanishi talab etilardi.

**Senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushiriladi.** 14 ta hududdan 6 nafardan emas, 4 nafardan senator saylanadi, prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni 16 nafardan 9 nafarga qisqaradi. Bu o'zgarish 2024 yilda bo'ladigan parlament saylovi vaqtida kuchga kiradi. Qonunchilik palatasi deputatlari sonini (150 nafar) oshirmaslikka, o'zgarishsiz qoldirishga qaror qilindi.

**Bosh vazirni tayinlash va unga ishonchsizlik votumi bildirishda Senatning ishtiroki bekor qilindi.** Endilikda buning uchun deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismi ovoz berishi yetarli (avval har ikki palata a'zolarining uchdan ikki qismi ovoz berishi zarur edi; eslatib o'tamiz, ishonchsizlik votumi e'lon qilinsa, prezident bosh vazirni lavozimidan ozod etadi). Bosh vazir va hukumat a'zolarining hisobotlarini eshitish ham quyi palataning vakolatiga o'tkazildi. Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi hukumat a'zolarini iste'foga chiqarish to'g'risida prezidentga taklif kiritish vakolatiga ega bo'ldi.

**Korrupsiyaga va monopoliyaga qarshi kurashish organlari rahbarlarini prezident taqdimiga binoan saylash Senatning vakolatiga kiritildi.** Senat, shuningdek, eng yuqori rangdagi sud mansabdorlarini saylaydi, bosh prokuror va Hisob palatasi raisligiga nomzodlarni ko'rib chiqib ma'qullaydi, DXX raisligiga nomzod bo'yicha prezident bilan maslahatlashuv o'tkazadi, Markaziy bank raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, xorijdagi asosiy diplomatlarni tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi (bularning barchasi prezident taqdimiga binoan amalga oshiriladi). Bundan tashqari, Senat mahalliy kengashlarning qonunga zid qarorlarini bekor qilish vakolatiga ega bo'ldi.

**Qonunchilik palatasi qonunlar bo'yicha qo'shimcha vakolat oldi.** Unga ko'ra, endilikda Senat qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida 60 kun ichida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi qonunni prezidentga yuboradi. Qonunlarning prezident tomonidan imzolanishi va e'lon qilinishi uchun belgilangan muddat 30 kundan 60 kunga uzaytirildi. Prezident tomonidan qaytarilgan qonun parlament palatalari tomonidan yana qabul qilingan taqdirda, prezidentning bu qonunni imzolash va e'lon qilish muddati o'zgarishsiz (14 kun) qoldirildi.

**Prezident muddatidan ilgari prezident saylovini tayinlashga haqli ekani belgilandi.** Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi va Senatga o'zini o'zi tarqatib yuborish vakolati berildi (palata a'zolarining kamida uchdan ikki qismining ovozi talab etiladi). Shuningdek, jiddiy voqealar ro'y berganida, ikki palata qo'shma qaror qabul qilgan holda parlament tekshiruvi o'tkazishi mumkinligi yozib qo'yildi.

**Sudyalar muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmaydi.** Konstitutsiyaga qo'shilgan bu norma bo'yicha ham huquqiy sharhga zarurat bor. "Sudlar to'g'risida"gi qonunda "hisobdor" tushunchasi uchramaydi. Sudyalarning o'zlari chiqargan qarorlari bo'yicha hisobdor bo'lmasligi odil sudlovni ta'minlashga qanday ta'sir qilishi – izohtalab holat, bizningcha. Bu kabi mavxum qoidalar pirovardida yangi konstitutsiyani uning targ'ibotida ko'p marta aytilgan va

hujjatning o'zida ham belgilangan to'g'ridan to'g'ri ishlaydigan qonun bo'lishini savol ostida qoldiradi.

**Konstitutsiyaviy sud sudyalari 10-yil muddatga saylanadi** va qayta saylanishi mumkin bo'lmaydi. Avvalgi tartibga ko'ra, bu muddat birinchi marta saylanganida 5 yil, keyingisida 10-yil edi.

Ayni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq bitta lavozimni egallashi mumkin emasligi haqidagi qoida, prezidentdan tashqari, Senat raisi, Qonunchilik palatasi spikeri, Oliy sud raisi va o'rinbosari, Sudyalar oliy kengashining raisi va o'rinbosari, Markaziy saylov komissiyasi raisi, bosh prokuror, hokimlar va kengashlar raislariga nisbatan ham tatbiq etiladigan bo'ldi.

Referendumda qabul qilingan qonunning **7-moddasi** bilan, barcha darajadagi davlat mansabdorlarining ayni paytga qadar egallab kelgan muddatlari nollashtirildi. Ular lavozimlarini egallab kelayotganining surunkali muddatlari sonidan qat'i nazar, boshqa fuqarolar bilan teng ravishda xuddi shu lavozimlarga saylanish va tayinlanishga haqli, deb belgilandi.

#### **10. Mahalliy davlat hokimiyatidagi o'zgarishlar. Hokimlar kengash raisligidan ketadi**

Mahalliy davlat boshqaruvida vakillik va ijro etuvchi organlar bir-biridan ajratilmoqda. Bu boradagi hozirgi tartib hokimiyatning bo'linish va hokimiyat bo'g'inlarining o'zaro tiyib turish prinsipiga zid. Bosh qomusning yangi tahririga asosan, bunga barham berilib, mahalliy kengashlar saylanadigan vakillik organlari, hokimliklar esa ijro organlari deb belgilanmoqda.

Shunga muvofiq, quyidagi sanalardan boshlab, hokimlarning kengashlarda raislik qilishiga barham beriladi:

- viloyatlarda va Toshkent shahrida 2024-yilgi deputatlik saylovlari yakunlari bo'yicha;
- tuman va shaharlarda 2026-yil 1-yanvardan boshlab.

Mahalliy kengashlar raislari kengash deputatlari orasidan 5 yil muddatga saylanadi. Hokimlar esa 5-yil muddatga tayinlanadi, tayinlangan hokimni kengashlar tasdiqlaydi. Shu tariqa, kengash raislari ham, hokimlar ham to'g'ridan to'g'ri aholi tomonidan saylanmaydi.

Kengashlarning vakolatlariga, jumladan, quyidagilar kiradi:

- mahalliy budjetni ko'rib chiqish va qabul qilish, uning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
  - hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash;
  - hokimni lavozimga tasdiqlash, uning faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni eshitish.
- Hokimlarning vakolatlari esa, jumladan, quyidagilardan iborat bo'ladi:
- konstitutsiya va qonunlarni, parlament palatalarining qarorlarini, prezidentning farmonlari, qarorlari va farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasining, yuqori turuvchi hokimlarning va tegishli xalq deputatlari kengashlarining qarorlarini bajarish;
  - hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
  - mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish.

Hokimlar va mahalliy kengashlarning faoliyatini tashkil etish tartibi bo'yicha alohida qonunlar qabul qilinadi. Mahalliy masalalar bo'yicha ularning vakolatlari qanday taqsimlanishi ana shu qonunlarda aks etadi.

**Yuqoridagilardan tashqari, konstitutsiyaga boshqa ko'plab normalar ham qo'shilgan, jumladan:**

- O'zbekistonda o'lim jazosi taqiqlanadi.
- Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.
- Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.
- Har kim o'z shaxsiga doir noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.
- Davlat internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Eslatib o'tamiz, prezident Shavkat Mirziyoyev konstitutsiya islohoti haqida 2021-yil 6-noyabr kuni, ikkinchi prezidentlik muddatiga kirishishi yuzasidan inauguratsiya marosimidagi nutqida birinchi marta aytib o'tgan edi. Davlat rahbari o'sha yili dekabr oyida, konstitutsiya bayrami arafasida xalqqa yo'llagan tabrigida: "konstitutsiyani yangilashdek g'oyat muhim, strategik vazifani hal etishda yetti marta emas, yetmish marta o'ylash" zarurligini ta'kidlagan edi. 2022-yil may oyida konstitutsiyaviy komissiya tuzilib, hujjatni yangilash jarayoni boshlandi.

**Rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya qabul qilingan kun sifatida bundan keyin ham 1992-yil 8-dekabr sanasi e'tirof etiladi, 8-dekabr – bayram sanasi o'zgarmaydi.**

**Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida**

08.05.2023

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni**

Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi unda xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganligidan dalolat bermoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Referendum ko'p millatli buyuk xalqimizning birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishga qat'iy qaror qilganligining ishonchli ifodasi bo'ldi.

Xususan, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi hamda o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining zamonaviy konsepsiyasini hisobga olgan holda, Oliy Majlis, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati o'rtasida vakolatlar qayta taqsimlandi. Joylarda hokimlar va xalq deputatlari Kengashlari vakolatlari taqsimlanishiga asoslangan davlat hokimiyatini tashkil etishning yangi modeli nazarda tutildi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini so'zsiz va to'liq amalga oshirish, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni Yangi O'zbekiston ulug'vor g'oyasiga hamohang tarzda ro'yobga chiqarish, davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo'lga qo'yish, fuqarolar o'z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his etib turishini ta'minlash maqsadida:

1. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyani so'zsiz va to'liq amalga oshirish barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi etib belgilansin.

2. Belgilab qo'yilsinki:

davlat organlari va tashkilotlarining rahbarlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyani amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash uchun shaxsan javobgar hisoblanadi;

yangi tahrirdagi Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanligidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to'g'ridan-to'g'ri va so'zsiz qo'llaniladi;

yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini ularni amalga oshirish uchun boshqa qonunchilik hujjatlarining mavjud emasligi yoki qonunchilikka Konstitutsiyaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmaganligi vaji bilan qo'llashni rad etish qat'iy qat'iy taqiqlanadi.

3. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi (keyingi o'rinlarda – dastur) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Quyidagilar:

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ustuvor g'oyalarini ro'yobga chiqarish va normalarini hayotga tatbiq etish bo'yicha Davlat komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Davlat komissiyasi) 2-ilovaga muvofiq tarkibda;

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat prinsiplarini izchil amalga oshirish bo'yicha ekspertlik kengashlari (keyingi o'rinlarda – ekspertlik kengashlari) 3–7-ilovalarga muvofiq tarkiblarda tuzilsin.

5. Belgilansinki, Davlat komissiyasi:

yangi tahrirdagi Konstitutsiya va dasturni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishini ta'minlaydi;

davlat organlari va tashkilotlari, ekspertlik kengashlarining yangi tahrirdagi Konstitutsiya va dasturni amalga oshirish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

yangi tahrirdagi Konstitutsiya va dasturni amalga oshirishda keng jamoatchilik, fuqarolik jamiyati institutlari, ilmiy doiralar va xorijiy ekspertlar ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratadi;

yangi tahrirdagi Konstitutsiyani amalga oshirish doirasida qilingan ishlarni kengaytirilgan tarzda yiliga kamida ikki marotaba tanqidiy muhokama qilib boradi hamda davlat organlari va tashkilotlari, ekspertlik kengashlari rahbarlarining hisobotlarini eshitadi.

6. Ekspertlik kengashlari (T.Narbayeva, N.Ismoilov, N.Yo‘ldoshev, J.Qo‘chqorov, A.Tashkulov):

2024-yil 1-yanvarga qadar o‘rta va uzoq istiqbolli suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatni rivojlantirish konsepsiyalari ishlab chiqilishi va Davlat komissiyasiga kiritilishini ta‘minlasin;

yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkamlangan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatning ustuvor prinsiplari ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida aks ettirilishi ustidan monitoring olib borsin;

yangi tahrirdagi Konstitutsiya va dasturning amalga oshirilishi yuzasidan har chorakda Davlat komissiyasiga hisobot kiritib borsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti yangi tahrirdagi Konstitutsiyani amalga oshirish jarayonini axborot-tahliliy, ilmiy va ekspertlik jihatdan ta‘minlash uchun mas‘ul etib belgilansin va uning zimmasiga quyidagi qo‘shimcha vazifalar yuklatilsin:

yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ilmiy ekspertizadan o‘tkazish;

davlat organlari, ayniqsa, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanishi holatini monitoring qilib borish;

yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida yangi o‘quv dasturlari, darsliklar va boshqa qo‘llanmalarni tayyorlash bo‘yicha ilmiy-metodik chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish.

8. Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari korpusini shakllantirishning majoritar-proporsional shakliga asoslangan saylov tizimini joriy etish haqidagi takliflari ma‘qullansin.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga bir oy muddatda majoritar-proporsional shaklga asoslangan saylov tizimiga o‘tishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish tavsiya etilsin.

9. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 32-moddasida belgilangan mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqi to‘liq ro‘yobga chiqarilishini ta‘minlash maqsadida:

Vazirlar Mahkamasi (A. Aripov) ikki oy muddatda “Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinishi lozim bo‘lgan shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari toifalarining ro‘yxati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish bo‘yicha qonun loyihasini Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritsin;

Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov) bir oy muddatda fuqarolarni yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda xabardor qilish tartibini joriy etishga qaratilgan mutlaqo yangi mexanizmlarni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasini taqdim qilsin.

10. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 78-moddasida belgilangan bolalar va yoshlarda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirishga oid qoidalarni amalga oshirish maqsadida 2023-yil 1-sentabrdan boshlab respublika fuqarosi hisoblangan va 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarning madaniy meros obyektlariga, jumladan ko‘rgazmalar, tarixiy obidalar va ziyoratgohlar, shuningdek, davlat muzeylariga to‘lovsiz kirish tartibi joriy etilsin.

Oliy Majlis palatalariga bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash hamda himoya qilish, bolaning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘liq rivojlanishi uchun munosib



shart-sharoitlarni yaratish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to‘g‘risida”gi qonun loyihasini qisqa muddatda qabul qilish tavsiya etilsin.

11. Fuqarolarning yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 50-moddasida belgilangan ta‘lim olish huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish maqsadida 2023-yil 1-avgustdan boshlab soliq to‘lovchilar tomonidan yoshidan qat‘i nazar farzandlarining O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim olishlari uchun yo‘naltiriladigan to‘lovlar soliq solinmaydigan daromadlar toifasiga kiritilsin.

12. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 41-, 65–67-moddalari talablaridan kelib chiqib, shuningdek, mulkiy huquqlarning ishonchli himoyasini ta‘minlash, ushbu huquqlarni cheklayotgan omillarni bartaraf etish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida 2023-yil 1-iyundan boshlab quyidagilar bekor qilinsin: to‘lov xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashkilotlar jismoniy shaxslar o‘rtasida pul o‘tkazmalari amalga oshirilganda, ularga ko‘rsatilgan xizmatlar uchun elektron hisobvara-q-fakturalar taqdim etishva rasmiylashtirish tartibi;chakana savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarining faoliyat ko‘rsatish vaqtiga nisbatan cheklovlar.

13. Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev) Markaziy bank (M. Nurmuratov), Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (L. Kudratov), Tabiat resurslari vazirligi (A. Abduxakimov) bilan birgalikda ikki oy muddatda “yashil moliyalashtirish” mexanizmlarini tatbiq etish bo‘yicha qaror loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin va unda shu jumladan “yashil sertifikat”, “yashil kreditlar” va xalqaro tajribada keng foydalaniladigan boshqa institutlarni nazarda tutsin.

14. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 55-moddasida belgilangan har bir shaxsning o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi kafolatlarini yanada kuchaytirish maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab, ma‘muriy sudlarga shikoyat qilishda fuqaro va tadbirkorlik subyektlaridan davlat bojini undirmaslik, bunda davlat bojini ishni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha aybdor tarafdin undirish tartibi joriy etilsin.

Oliy sud (B. Islamov) Adliya vazirligi (A. Tashkulov), Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev) bilan birgalikda 2023-yil 1-oktabrga qadar ushbu bandeda nazarda tutilgan masala bo‘yicha qonun loyihasini Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritsin.

15. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 21-moddasida belgilangan huquqiy ta‘sir choralari qo‘llashda mutanosiblik prinsipini hayotga tatbiq etish maqsadida Adliya vazirligi (A. Tashkulov) Oliy sud (B. Islamov), Bosh prokuratura (N. Yo‘ldoshev), Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov) hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev) bilan birgalikda:

ikki oy muddatda ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikda shartnomaviy va boshqa fuqaroviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan javobgarlik choralari bekor qilish;

2024-yil 1-yanvarga qadar qonunchilik bazasini to‘liq xatlovdan o‘tkazib, unda belgilangan huquqiy ta‘sir choralari mutanosiblik prinsipiga muvofiqlashtirish bo‘yicha takliflar kiritsin.

16. Adliya vazirligi (A. Tashkulov) Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev), Oliy sud (B. Islamov) va Bosh prokuratura (N. Yo‘ldoshev) bilan birgalikda ikki oy muddatda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 29-moddasida belgilangan davlatning huquqbuzarliklardan jabrlanganlarga yetkazilgan zararining o‘rni qoplanishi uchun shart-sharoitlarni yaratish majburiyati to‘liq ro‘yobga chiqarilishini ta‘minlashga qaratilgan mexanizmlarni nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda kiritsin.

17. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 26-moddasida belgilangan insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizligi kafolatlarini yanada mustahkamlash maqsadida Bosh prokuratura (N. Yo'ldoshev) Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov), Oliy sud (B. Islamov) va Davlat xavfsizlik xizmati (A. Azizov) bilan birgalikda 2023-yil 1-avgustga qadar qamog'ga olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashda shaxsni hibsonaga joylashtirishdan oldin majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibini joriy etish bo'yicha asoslantirilgan takliflarni kiritish.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 142-moddasi talablaridan kelib chiqib:

a) jinoyat protsessida himoyachining maqomini kuchaytirish maqsadida, unga quyidagi qo'shimcha huquq va vakolatlar berilsin:

surishtiruv va dastlabki tergovda himoyachi tomonidan istalgan vaqtda jinoyat ishini qo'zg'atish va tugatish haqidagi qarorlardan nusxa olish;

ko'rsatmalarni oldindan mustahkamlab qo'yish (deponirovaniye) uchun sudga to'g'ridan-to'g'ri iltimosnoma kiritish;

tergovga qadar tekshiruv o'tkazilayotgan shaxslarga malakali yuridik yordamdan foydalanish huquqini kafolatlash maqsadida tergovga qadar tekshiruv jarayonida himoyachi maqomida ishtirok etish;

ish bo'yicha shartnoma asosida sud ekspertizalari o'tkazilishini va zarur bilimga ega mutaxassislar jalb qilinishini tashkillashtirish;

jinoyat ishi bo'yicha ma'lumotlarga ega shaxslarni so'rovdan o'tkazishda ularning roziligi bilan maxsus texnika vositalaridan foydalanish;

b) advokatura sohasiga yosh kadrlarni faol jalb qilish maqsadida 2023-yil 1-sentabrdan boshlab oliy ta'lim tashkilotlari yurisprudensiya yo'nalishida tahsil olayotgan bitiruvchi kurs talabalariga advokatlik tuzilmalarida mehnat qonunchiligiga muvofiq o'qishdan bo'sh vaqtda advokat yordamchisi sifatida ish faoliyatini olib borishga ruxsat etilsin.

Adliya vazirligi (A. Tashkulov) Oliy sud (B. Islamov) va Bosh prokuratura (N. Yo'ldoshev), Davlat xavfsizlik xizmati (A. Azizov), Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov) bilan birgalikda ikki oy muddatda himoyachining huquq va vakolatlarini kengaytirishni, advokat yordamchisi sifatida ish faoliyatini olib borish tartibini takomillashtirishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini belgilangan tartibda kiritish.

19. Bosh prokuratura (N. Yo'ldoshev) Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov), Milliy gvardiya (R. Djurayev), Davlat xavfsizlik xizmati (A. Azizov) bilan birgalikda bir oy muddatda ushlangan va tergov ostida bo'lgan shaxsning konstitutsiyaviy protsessual huquqlarini batafsil tushuntirib beruvchi ko'rgazmali materiallarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shu jumladan, tergov idoralari binolarida fuqarolarga ko'rinadigan tarzda joylashtirilishini ta'minlasin.

20. Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (I. Abduraxmanov), Adliya vazirligi (A. Tashkulov) va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda 2023/2024-o'quv yili boshlanguniga qadar:

barcha ta'lim turlari va bosqichlaridagi Konstitutsiyani o'rganish bo'yicha o'quv rejalari va ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqish va ularni yangi tahrirdagi Konstitutsiya norma va qoidalariga moslashtirish;

o'quvchilarga, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyani o'rgatish bo'yicha zamonaviy metodika asosida darsliklar, o'quv qo'llanmalari va maxsus adabiyotlarni yaratish choralari ko'rsin.

Mazkur bandedagi chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplansin.

21. Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (G.Mirzayev) Adliya vazirligi (A.Tashkulov), Sudyalari oliy kengashi (X.Yodgorov) va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda bir oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi 2023–2024-yillarda yangi tahrirdagi Konstitutsiya bo'yicha davlat fuqarolik xizmatchilari va sud-huquq tizimi xodimlarini o'qitish rejasini tasdiqlasin:

alohida grafik asosida barcha bo'g'indagi davlat fuqarolik xizmatchilari va sud-huquq tizimi xodimlariga yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini o'qitishni tashkil etish;

davlat fuqarolik xizmatchilari va sud-huquq tizimi xodimlarining konstitutsiyaviy madaniyati, huquqiy savodxonligini oshirish va baholash tizimini yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga moslashtirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish.

22. Oliy Majlis palatalari, Konstitutsiyaviy sud, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti hamda Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazning yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning moddama-modda ilmiy-amaliy sharhini tayyorlash to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning moddama-modda ilmiy-amaliy sharhini tayyorlash bo'yicha tahrir kengashi 8-ilovaga muvofiq tarkibda shakllantirilsin va uning ishchi organi etib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti belgilansin.

Tahrir kengashi (M. Raxmankulov):

sharhni tayyorlashda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning ko'p millatli xalqimizni birlashtirishdagi salohiyatini, unda o'z aksini topgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat prinsiplarini, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning yangi mexanizmlarini ochib berishga, shuningdek, uning matni aholining keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlar uchun tushunarli va sodda tilda bo'lishiga e'tibor qaratsin;

yetakchi milliy va xorijiy ekspertlar, huquqshunoslar va davlat arboblari jalb etgan holda, 2023-yil 1-dekabr qadar sharh matni tayyorlanishini hamda o'zbek va xorijiy tillarda chop etilishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

23. Raqamli texnologiyalar vazirligi (Sh.Shermatov) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti (M.Raxmankulov) va Adliya vazirligi (A.Tashkulov) 2023-yil 1-iyungacha qadar o'zbek va xorijiy tillarda "Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi" yagona milliy portali (keyingi o'rinlarda – portal) va uning mobil ilovasi ishga tushirilishini ta'minlasin.

Bunda, portal va uning mobil ilovasida fuqaro va tadbirkorlar uchun qonunchilikni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirish hamda uni amalga oshirishda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflarni taqdim etish imkoniyati nazarda tutilsin.

24. Adliya vazirligi (A.Tashkulov) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti (M.Raxmankulov) bilan birgalikda uch oy muddatda qonunosti hujjatlarini xatlovdan o'tkazish hamda portalga kelib tushgan takliflarni umumlashtirish natijalariga ko'ra yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirilishi lozim bo'lgan normalarni qayta ko'rib chiqish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

25. O'zbekiston Milliy axborot agentligi va O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasiga ommaviy axborot vositalarida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning hayotga tatbiq etib borilishi, shu jumladan aholining turmushidagi ijobiy o'zgarishlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

26. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib dasturda ijrochi sifatida nazarda tutilgan vazirliklar, idoralar va ekspertlik kengashlari rahbarlari,

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari S.U.Umurzakovga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

**Sh. Mirziyoyev**

### **Yangi O'zbekistonda yangi tahrirdagi Konstitutsiya**

Xabaringiz bor, joriy yilning 30-aprel sanasida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim voqea bo'lib o'tadi. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni umumxalq referendumida ovozga qo'yiladi.

### **Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 1-maydan kuchga kirdi**

***O'zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahriri 1-maydan kuchga kirdi. U 6 bo'lim, 27 bob va 155 ta moddadan iborat bo'ladi.***

1-may kuni Markaziy saylov komissiyasi O'zbekistonda o'tgan referendumning yakuniy natijalarini e'lon qilgandi. Referendumda saylovchilarning 84,5 foizi qatnashgan (avval 84,54 foiz deb xabar berilgandi). Ro'yxatga kiritilgan 19 722 809 saylovchidan 16 667 097 nafari (16 673 189 nafari) ovoz berdi. Ulardan 611 320 nafari muddatidan oldin ovoz berishda qatnashdi.

Ovoz berishda qatnashgan fuqarolarning 90,2 foizi (90,21 foizi) yoki 15 034 608 nafari (15 040 055 nafari) yoqlab, 9,35 foizi yoki 1 558 817 nafari (shuningdek 9,35 nafari) o'zgarishga qarshi ovoz bergan. Yaroqsiz deb topilgan byulletenlar soni 73 672 ta (73 934 ta) yoki 0,44% ni tashkil etdi.

### **TEST TOPSHIRIQLARI.**

1. Inson xuquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi maqsadi va faoliyatining asosiy yo'nalishlari.
3. "Yoshlar – 2020: Global birdamlik, barqaror rivojlanish va inson xuquqlari" bo'yicha Samarkand forumi (2020).
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar.
5. O'zbekiston Respublikasi davlat xokimiyatining tashkil topishi va konstitutsiyaviy asoslari.
6. Siyosiy partiya tushunchasi va uning tuzish mexanizmlari.
7. Markaziy saylov komissiyasi maqsadi va vazifalari.
8. Okrug saylov komissiyasi va saylov uchastkalari tuzish va ularning faoliyati.
9. Saylov tashviqotlarida ommaviy axborot vositalarining ishtiroki masalalari

#### **4-mavzu: Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va mehnat bozorini tartibga solish**

##### **Reja:**

- 1. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish.**
- 2. Mehnat bozorini tartibga solish.**

**O`z hayot tajribasini har  
Tomonlama boyitmagan  
Odamning tarbiyasi-behuda.  
R.Golbah.**

**Tayanch iboralar:** Zamonaviy tarbiyashunoslik, ilmiy-texnologik, globallashuv, globallashuv jarayoni, globallashuvning shaxs hayotidagi o`rni.

Tadbirkorlik va iste'mol madaniyatini takomillashtirish, reklama sohasidagi nohalol raqobat va noto'g'ri reklamaga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlari. Marketing va reklama sohasidagi xalqaro tadbirlarning ahamiyati. Iste'molchilar huquqi buzilishi sabablarini tahlil qilish hamda iste'molchilar huquqi buzilishi holatlarining oldini olish.

Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama bozorini tartibga solish sohasida fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa tashkilotlari bilan hamkorlik qilish. Iste'mol bozorini davlat tomonidan narx-navosi tartibga solinadigan narxlarni dinamikasi va narx shakllanish mexanizmlarini o'rganish. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama bozorini tartibga solish masalalari bo'yicha MDH davlatlarining hamkorligi. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama bozorini tartibga solish masalalari bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish. Xorijiy tajribalardan mamlakatimizda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama bozorini tartibga solishda foydalanish.

O'quv mashg'uloti uchun materiallar O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi qonunining 1-moddasida qonunining maqsadi va vazifalari belgilab berilgan.

Ushbu Qonunning maqsadi reklamani tayyorlash va tarqatish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonunning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: yuridik va jismoniy shaxslar yoki mahsulotlar to'g'risida axborot oqimini shakllantirish; tadbirkorlik va iste'mol madaniyatini takomillashtirish;

reklamani davlat va jamoat manfaatlariga, axloq va ma'naviyatning umum e'tirof etilgan normalariga, yuridik va jismoniy shaxslarning ishchanlik obro'siga, atrof muhit holatiga tajovuzidan himoyalash choralari ta'minlash;

mahsulotning xarakteri, tayyorlanish usuli va joyi, iste'mol xususiyatlari, sifati va boshqa tavsiflari, uni realizatsiya qilish shartlariga ko'ra iste'molchilarni chalg'itadigan yolg'on yoki noaniq ma'lumotlar reklama vositasida tarqatilishining oldini olish.

Qonunning qo‘llanish sohasi etib quyidagilar belgilangan:  
O‘zbekiston Respublikasi hududida reklama tayyorlash va tarqatish bilan bog‘liq munosabatlarga tatbiq etiladi. Ijtimoiy voqealarni, siyosiy partiyalarning, diniy tashkilotlar va jamoat birlashmalarining manfaatlarini aks ettiruvchi va (yoki) ularni qo‘llab-quvvatlashga mo‘ljallangan axborot bilan bog‘liq munosabatlarga tatbiq etilmaydi.

Qonunda belgilangan asosiy tushunchalar quyidagilardan iborat: reklama - bevosita yoki bilvosita foyda (daromad) olish maqsadida yuridik yoki jismoniy shaxslar, mahsulot, shu jumladan tovar belgisi, xizmat ko‘rsatish belgisi va texnologiyalar to‘g‘risida har qanday shaklda va har qanday vositalar yordamida qonun hujjatlariga muvofiq tarqatiladigan maxsus axborot; reklama beruvchi-reklamani tayyorlash va (yoki) tarqatish uchun unga buyurtmachi bo‘lgan shaxs;

reklama tayyorlovchi-reklama tayyorlashni to‘liq yoki qisman amalga oshiruvchi shaxs;

reklama tarqatuvchi-reklama vositalari orqali reklama tarqatishni amalga oshiruvchi shaxs;

reklamadan foydalanuvchi-reklama yo‘naltirilgan shaxs yoki shaxslar guruhi; reklama vositalari-reklamani undan foydalanuvchiga yetkazish uchun ishlatiladigan vositalar;

mahsulot-tovarlar, ishlar, xizmatlar;

aksilreklama-noto‘g‘ri (insofsiz, bila turib yolg‘on) reklama keltirib chiqargan yoki keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni bartaraf etish maqsadida tarqatiladigan raddiya.

Reklamaga doir asosiy talablar quyidagilardan iborat: Qonuniylik, aniqlik, ishonchlilik, reklamadan foydalanuvchiga zarar, shuningdek ma‘naviy zarar yetkazmaydigan shakllar va vositalardan foydalanish reklamaga doir asosiy talablardir.

**Reklamada quyidagilar taqiqlanadi:** ishlab chiqarilishi yoki realizatsiya qilinishi qonun hujjatlari bilan taqiqlangan mahsulot to‘g‘risida axborot tarqatish; jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeiga qarab, boshqa holatlarga ko‘ra kamsitish yoki o‘zga shaxslarning mahsulotini badnom etish; qonun hujjatlarining buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan, fuqarolarning sog‘lig‘i yoki hayotiga va atrof muhitga zarar yetkazuvchi yoxud zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan, shuningdek xavfsizlik vositalariga e‘tiborsizlik tuyg‘usini uyg‘otuvchi harakatlarga da‘vat qilish; majburiy sertifikatlashtirilishi zarur bo‘lgan yoki ishlab chiqarilishi yoxud realizatsiya qilinishi uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) bo‘lishi talab etiladigan mahsulotni tegishli sertifikat, litsenziyasi bo‘lmay turib reklama qilish; agar mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, boshqa mahsulot reklamasida qo‘llaniladigan umumiy yechim, matn, tasvir, musiqali yoki ovozli ohanglarni aynan takrorlash (taqlid yoki o‘xshatma qilish); jismoniy

shaxsning nomi yoki tasviridan uning roziligisiz foydalanish; pornografiyani tarqatish.

**Quyidagi reklama taqiqlanadi:** faqat voyaga yetganlarga mo'ljallangan yoki voyaga yetmaganlarning olishi yoxud iste'mol qilishi taqiqlangan mahsulotni voyaga yetmaganlar iste'mol qilayotgan yoki undan foydalanayotgan tasvir tushirilgan reklama; voyaga yetmaganlarni mahsulot olishga yoki reklama qilinayotgan mahsulotni olishni iltimos qilib uchinchi shaxslarga murojaat etishga da'vat qiluvchi reklama; haqiqiy yoki o'yinchoq quroldan foydalanilgan reklama.

**Reklama beruvchi quyidagi huquqlarga ega:** reklama xususida shartnoma tuzish to'g'risida oshkora taklif (ommaviy oferta) kiritish; reklama tayyorlovchi va tarqatuvchi shartnomani asossiz ravishda bekor qilgan hollarda, yetkazilgan zararining o'rnini va ma'naviy zararni qoplash to'g'risida da'vo bilan sudga murojaat qilish.

**Reklama beruvchi:** reklama tayyorlovchi va (yoki) tarqatuvchining talabiga binoan reklama axborotining ishonchligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi; agar reklama beruvchining faoliyati litsenziyalanishi zarur bo'lsa, mahsulotni yoki reklama beruvchining o'zini reklama qilayotganda tegishli litsenziyani taqdim etishi shart.

Reklama beruvchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va o'zga majburiyatlarni bajarishi mumkin.

**Reklama tayyorlovchi va tarqatuvchi quyidagi huquqlarga ega:** ommaviy oferta yo'llangan shaxsdan belgilangan tartibda aksept olganidan so'ng reklama beruvchi shartnoma tuzishdan bosh tortgan hollarda, bu shaxsni shartnoma tuzishga majburlash to'g'risidagi hamda reklama beruvchining shartnoma tuzishni asossiz ravishda rad etganligi tufayli yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat qilish; qonun hujjatlarida belgilangan hollarda reklama beruvchidan tegishli litsenziyani talab qilish.

**Noto'g'ri reklama:** noaniqligi, ikki xil ma'noni anglatishi, bo'rttirib yuborishi, yashirib ketishi oqibatida, reklamani tarqatish vaqti, joyi va usuliga nisbatan qo'yilgan talablarni va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablarni buzishi natijasida reklamadan foydalanuvchilarni chalg'ituvchi yoki chalg'itishi mumkin bo'lgan, shaxslarga, shuningdek davlatga zarar va ma'naviy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan reklama noto'g'ri (insofsiz, bilaturib yolg'on) reklama hisoblanadi.

**Yashirin reklama:** yashirin reklama iste'molchining idrokiga uning o'zi anglamagan holda ta'sir o'tkazadigan, shu jumladan maxsus video ilovalardan (qo'sh ovozli yozuvdan) foydalanish yo'li bilan hamda boshqa usullar bilan ta'sir o'tkazadigan reklamadir. Yashirin reklamadan radio-, tele-, video-, audio- va kino mahsulotda, shuningdek boshqa mahsulotda foydalanishga va uni o'zga usullar bilan tarqatishga yo'l qo'yilmaydi.

Bosma ommaviy axborot vositalaridagi reklamaning hajmi, mavzusini shu ommaviy axborot vositalarining o'zlari mustaqil belgilaydi. Obuna

bo'yicha tarqatiladigan bosma vositalar obuna shartlarida nashrning umumiy hajmidagi reklama miqdorini ko'rsatishlari shart.

O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunida keltirilgan asosiy tushunchalar quyidagilardan iborat:

**iste'molchi** — foyda chiqarib olish bilan bog'liq bo'lmagan holda shaxsiy iste'mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo'lgan fuqaro (jismoniy shaxs);

**ishlab chiqaruvchi** — iste'molchiga realizatsiya qilish uchun tovar ishlab chiqaradigan korxonalar, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor;

